

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI

**METROLOGIYA ASOSLARI**  
**(QONUNLASHTIRUVCHI METROLOGIYA**  
**QISMI)**

Amaliy mashg'ulotlar

USLUBIY QO'LLANMA



TOSHKENT -2023

## UO‘K 006.91(094)

**Tuzuvchilar: Bekmurotov Ch.A., Nizomov N.B. Metrologiya asoslari (Qonunlashtiruvchi metrologiya qismi) fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy qo‘llanma. Toshkent, ToshDTU, 2023.112 b.**

Uslubiy qo‘llanma namunaviy fan dasturiga muvofiq 60711300 – “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” namunaviy fan dasturiga muvofiq “Metrologiya asoslari” (Qonunlashtiruvchi metrologiya qismi) fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun tuzildi. Uslubiy qo‘llanma o‘quv rejasida amaliy mashg‘ulotlar uchun 30 soat ko‘rsatilgan ta’lim yo‘nalishlariga tuzilgan.

*Uslubiy qo‘llanma Islom Karimov nomidagi ToshDTU Ilmiy-uslubiy kengashining (2023 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ son qarori) asosida nashr etilmoqda.*

### ***Taqrizchilar:***

- To‘rayev Sh.A. O‘zR OTFIV Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, t.f.n., dotsent.
- Turg‘unboyev A. ToshDTU “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasida professori. t.f.n.

## 1 – AMALIY MASHG‘ULOT

### **Metrologiya to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonunini tahlil qilish**

*Ishning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi qonunchilik va qonun osti hujjatlarini o‘rganish.*

Metrologiya faoliyat yuritishning shunday sohasiga kiradiki, uning asosiy tamoyillari aynan mamlakat qonunchiligiga muvofiq tarzda qabul qilinishi lozim bo‘lgan qonun bilan mustahkamlanishi zarur bo‘ladi. Bu shu bilan izohlanadiki, iste‘molchilarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan barcha yuridik me‘yorlar mamlakatning Oliy qonunchilik organi tomonidan qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinishi lozim. Metrologiya sohasidagi qonunchilik o‘lchashlarning ishonarsiz natijalarining salbiy oqibatlaridan himoya qilish yo‘li orqali mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonuni o‘lchashlarning birligini ta‘minlash sohasidagi ishlarning qonuniy asosi, O‘zbekistonda o‘lchashlarning birligini ta‘minlash Davlat tizimining hujjatlari va hukumat qarorlari esa – bu sohadagi ishlarning me‘yoriy-huquqiy asosi bo‘lib hisoblanadi.

*“Metrologiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish xaqida qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda qabul qilingan va senat tomonidan 2020-yil 28-fevralda ma‘qullangan.*

#### **Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatilmoqda:**

1. “metrologiya” — o‘lchovlar, ularning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan;
2. “yagona o‘lchov birligi” — o‘lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma‘lum bo‘lgan o‘lchov holati;
3. “o‘lchov vositasi” — o‘lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo‘lgan texnika vositasi;

### *Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari*

Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining o'zga qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida metrologiya sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

### **Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarish.**

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ — O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi amalga oshiradi.

*Texnik jihatdan tartibga solish agentligi vakolatiga:*

- ✓ Metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirish;
- ✓ milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash qoidalarini belgilash;
- ✓ o'lchov vositalari, usullari va natijalariga qo'yiladigan umumiy metrologik talablarni aniqlash;
- ✓ davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

### **Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar**

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash;

ishonchsiz o'lchash natijalarining oldini olish;

xolis, ishonchli va solishtiriladigan o'lchash natijalariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish;

o'lchash natijalarining milliy va (yoki) xalqaro etalonlargacha metrologik kuzatiluvchanligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishiga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'maklashish.

### **Metrologiyaga oid faoliyat sohasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

qonuniylik;

metrologiya tekshiruvi va nazorati natijalarining xolisligi;

ilmiy asoslanganlik;

o'lchash birliklari qo'llanilishida xalqaro birliklar tizimining ustuvorligi;  
boshqaruv tizimining yagonaligi;  
ma'lumotlarning oshkoraligi va ochiqligi;  
o'lchashlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha milliy va xalqaro talablarning uyg'unligi.

### **Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:**

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

metrologiyaga oid faoliyatni xalqaro talablar asosida rivojlantirish;  
investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;  
ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ularni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integrasiya qilish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ilg'or innovasion va axborot-kommunikasiya texnologiyalari joriy etilishini rag'batlantirish;

noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimi ishlatishi va rivojlanishini, uning xalqaro birliklar tizimi va boshqa mamlakatlarning kattalik birliklari tizimlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida metrologiyaga oid faoliyat sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kattalik birliklarining nomlari va belgilari, ularni yozish va qo'llash qoidalarini, metrologiya tekshiruvi va nazorati tartibini, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'tkazilgan o'lchash vositalarini sinash va metrologik attestasiyadan o'tkazish, qiyoslash, kalibrlash natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish tartibini belgilaydi.

### **O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati:**

Metrologiyaga oid faoliyat sohasining davlat tomonidan boshqarilishini metrologiya bo'yicha milliy organ — O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi) amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlaridan, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan iboratdir.

Davlat metrologiya xizmati maxsus vakolatli davlat organi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo'linmalaridan, shuningdek O'zbekiston milliy metrologiya institutidan iborat.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari huzuridagi maxsus tashkil etilgan hamda akkreditasiya qilingan bo'linmalardan iboratdir.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan maxsus tashkil etilgan hamda akkreditasiya qilingan yuridik shaxslardan va (yoki) ular huzuridagi bo'linmalardan (bundan buyon matnda yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari deb yuritiladi) iborat.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo'lgan hollarda o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish hamda metrologiya tekshiruvini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining huquq va majburiyatlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlarda o'rnatiladi.

**Davlat metrologiya xizmatini davlat tomonidan moliyalashtirish:**  
metrologiyaga oid faoliyat sohasini rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida ishtirok etish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni, shuningdek xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishda ishtirok etish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasi bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni o'tkazish;

etalonlar va o'lchash vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, olish hamda asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash;

standart namunalarni ishlab chiqish;

davlat metrologiya nazoratini o'tkazish.

### **Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati obyektlari**

etalonlar;

o'lchash vositalari;

sinov vositalari;

standart namunalar;

axborot-o'lchash tizimlari;

o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari;

o'ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog'idagi miqdori;

metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa obyektlar.

### **Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik:**

Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunining maqsad va vazifalarini ayting.

2. "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qachon o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi?

3.2014 yil 11 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi Qonuniga qanday o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan?

4.Metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qanday meyoriy xujjatlarni o‘z ichiga oladi?

## **2- AMALIY MASHG‘ULOT**

### **O‘zbekiston Respublikasida standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazorati to‘g‘risida**

**Ishning maqsadi:** *O‘zbekiston Respublikasida standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazoratining bosh vazifasi va metrologiya xizmati organlari faoliyatini o‘rganish.*

1.Xo‘jalik faoliyati subyektlari tomonidan standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirish bo‘yicha qonunchilikning boshqa hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Qurilish vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, sog‘liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, shuningdek, boshqa maxsus vakil qilingan davlat organlari o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Tayyorlovchilar (tadbirkorlar, sotuvchilar, ijrochilar), sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlarining majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilishlari hamda sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan davlat nazoratini O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining davlat inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiradilar.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalarini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

2.Vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar, davlat korxonalar, kooperativlar, qo‘shma, asionerlik, ijaradagi, kichik va boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan keyin matnda korxonalar deyiladi) ularning qaysi idoraga qarashliliklari va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, shuningdek respublika hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar tomonidan standartlar va metrologik qoidalarning, o‘lchov birligining o‘z vaqtida joriy etilishini va ularga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash, shuningdek, standartlar va o‘lchov



vositalarining ilmiy-texnik darajalarini tahlil qilishdan va ularni ishlab chiqishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, mehnat unumdorligini o‘stirish, mahsulotning texnik darajasini va sifatini oshirish maqsadida fan va texnika yutuqlaridan yanada samaraliroq foydalanishga ko‘maklashish O‘zbekiston Respublikasida standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazoratining bosh vazifasi hisoblanadi.

Mahsulotlar, atrof muhit, aholi sog‘lig‘i va mol-mulkining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida belgilanadigan talablar ustidan olib boriladigan davlat nazoratining obyekti mahsulot, shu jumladan, qaysi idoraga bo‘ysunishlari va mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, xo‘jalik faoliyati subyektlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning ham ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, ishlatish, tuzatish va foydalanish bosqichlarida sertifikatlashtirilgan mahsulotidir.

Mahsulotlar (dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulot ham), xizmatlar va, shuningdek, sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari hisoblanadi.

Etalonlar, o‘lchov vositalari, modda va materiallarning tarkibi va xossalari standart namunalari, axborot-o‘lchov tizimlari, o‘lchovlarni bajarish uslubi va metrologiya normalari va qoidalarida ko‘zda tutilgan boshqa ob‘yektlar davlat metrologiya tekshirishi va nazorati obyektlari hisoblanadi.

Xo‘jalik faoliyati sub‘yektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan barcha sharoitlarni yaratib berishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati:

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining standartlar ustidan nazorat qilish bo‘yicha bosh davlat inspektorlari;

standartlar ustidan nazorat qilish bo‘yicha viloyatlar, shaharlardagi bosh davlat inspektorlari;

standartlar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktori, uning birinchi o‘rinbosari va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi davlat nazorati departamenti boshlig‘i bir vaqtning o‘zida mos ravishda O‘zbekiston Respublikasining standartlar va o‘lchashlar birligini ta‘minlash bo‘yicha nazorat olib

boruvchi bosh davlat inspektori va bosh davlat inspektorining o‘rinbosarlari hisoblanadi.

Qurilish vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbariyati lavozimlariga ko‘ra ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining standartlar va o‘lchov vositalari ustidan nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektorlari, ularning o‘rinbosarlari esa O‘zbekiston Respublikasining standartlar va o‘lchov vositalari ustidan nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektorlarining o‘rinbosarlari hisoblanadilar.

Qurilish vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi va shaharlardagi hududiy organlari rahbarlari lavozimlariga ko‘ra ayni bir vaqtda tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida standartlar va o‘lchov vositalari ustidan nazorat qilish bo‘yicha bosh davlat inspektorlari, ularning o‘rinbosarlari esa — tegishli hududiy bosh inspektorlarining o‘rinbosarlari hisoblanadi.

Standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vazifasi topshirilgan bo‘lim boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislar, mansabdor shaxslar lavozimlari bo‘yicha bir vaqtning o‘zida standartlar va o‘lchov vositalari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat inspektorlari hisoblanadilar.

Standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar hokimiyat organlarining vakillari hisoblanadilar va davlat himoyasi ostida bo‘ladilar.

Standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar davlat nazoratchisi yoki davlat tekshiruvchisi sifatida O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan belgilanadigan tartibda attestasiyadan o‘tgan bo‘lishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasida davlat nazoratini:

butun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

qurilish, qurilish industriyasi, shu jumladan, loyihalash va konstruksiyalash sohasidagi standartlar bo‘yicha — Qurilish vazirligi;

tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish, atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli moddalar ta’siridan muhofaza qilish sohasida Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi;

tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dorivor vositalar sohasida, shuningdek, respublika sanoati ishlab chiqarayotgan, shu jumladan, import bo‘yicha keltirilayotgan mahsulot tarkibida inson

uchun zararli moddalarning borligini aniqlash masalalari bo'yicha — Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

3. Standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati organlari o'zlariga yuklangan vazifalarga muvofiq:

a) standartlar va metrologiya qoidalarining, shuningdek, mahsulotlar (jarayonlar, ishlar va xizmatlar) ning aholi hayoti va salomatligi, mulki xavfsizligiga, atrof muhitni muhofaza qilish, resurslarni tejash, bir-birini almashtira olishga majburiy talablarni belgilaydigan standartlar va metrologiya qoidalarining o'z vaqtida joriy qilinishi hamda ularga rioya qilinishini, shuningdek, ularni nazorat qilish uslublari birligi va tamg'alash birligini, qonunchilikda nazarda tutilgan, mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va yetkazib berish shartnomalariga kiritilgan boshqa talablarni tekshiradilar;

b) fizik o'lchovlarning belgilangan birliklarining to'g'ri qo'llanilishini, o'lchov vositalarining ahvolini, ularni tayyorlash, saqlash, uzatish, tekshirish va qo'llanish sharoitlarini, eskirgan o'lchov vositalarining ishlab chiqarishdan o'z vaqtida olib tashlanishini va ularni yangisiga almashtirilishini tekshiradilar;

v) standartlashtirish va metrologiya xizmatlarining idoraviy xizmatlari ishini nazorat qiladilar;

g) standartlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradilar va ularning faoliyatlarini muvofiqlashtiradilar;

d) sertifikatlashtirish sinovlarining to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

ye) ishlab chiqarishlar, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifat tizimlarida attestasiya shartlariga qanday rioya qilinayotganligi ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazadilar;

j) mahsulotlarning ayrim turlarini o'z bazalarida tashkil qilingan laboratoriyalarda sinab ko'radilar;

z) standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati natijalarini umumlashtiradilar, ularni ishlab chiqishda fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanishda ko'maklashadilar, ularning o'z vaqtida joriy qilinmaganligi, standartlar va metrologik qoidalarning buzilishi sabablarini tahlil qiladilar, standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorat organlari ishining ta'sirini oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni o'tkazadilar;

k) sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiradilar;

l) o'lovchlarni bajarish uslublarining to'g'ri qo'llanilayotganligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

m) agar standartlar, metrologiya qoidalari va mahsulotlarning texnik darajasini va sifatini oshirishni ta'minlamasa yoki amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lsa, ularni bekor qiladilar yoki bekor qilish, amalda bo'lish muddatlarini cheklash to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadilar;

n) standartlar tasdiqlashda va davlat ro'yxatidan o'tkazishda ularni ekspertiza qiladilar;

o) korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning o'lovch vositalarini ishlab chiqarish, tuzatish va tekshirish bo'yicha ishlarni bajarish uchun tayyorgarliklarini tekshiradilar, agarda ular tayyor bo'lsalar, ularga ko'rsatilgan ishlarni bajarish huquqini beruvchi ro'yxatga olinganlik guvohnomalarini topshiradilar;

p) vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlarning bosh tashkilotlarini va madaniy-maishiy maqsadlardagi mahsulotlarning muhim turlarini davlat sinovlarini o'tkazish bo'yicha attestasiya qilishni amalga oshiradilar va ushbu sinovlarni ularga biriktirib qo'yilgan mahsulotlar bo'yicha o'tkazish huquqini beruvchi ro'yxatga olinganlik guvohnomalarini beradilar;

r) sertifikatlashtirish qoidalari, standartlar va o'lovch vositalarini joriy etish va ularga rioya qilishni nazorat etish jarayonida aniqlangan buzilishlarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

#### 4. Davlat inspektori quyidagi huquqlarga egadir:

mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarishga tayyorlash, uni ishlab chiqarish, sotish (yetkazib berish) va ishlatish, saqlash, foydalanish jarayonida standartlarning majburiy talablari buzilganligi aniqlansa, ularni bartaraf etish haqida yozma ko'rsatma berish;

xo'jalik faoliyati sub'yekti tekshiruvdan bosh tortgan taqdirda, mahsulotni sotishni man qilish;

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining standartlarni nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektorlari, viloyatlar, shaharlarning standartlarni nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektorlari, bulardan tashqari, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti inspektorlari va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi inspektorlari quyidagi mutlaq huquqqa egadir:

standartlar, sertifikatlashtirish va metrologiya qoidalarining buzilishida aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati sub'yektlarining mansabdor shaxslarini belgilangan tartibda ma'muriy va moliyaviy javobgarlikka tortish;

mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga tayyorlash, uni tayyorlash, sotish (yetkazib berish, sotish), foydalanish, saqlash, transportda tashish va foydali tarzda ishlatish bosqichlarida standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar va taqdimnomalar berish;

normativ hujjatlari bo'lmagan mahsulotni ishlab chiqarishni taqiqlash; standartning majburiy talablariga muvofiq kelmaydigan, davlat ro'yxatidan o'tmagan va muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lmagan import qilingan mahsulotlarni sotishni taqiqlash;

davlat sinovidan, metrologik attestasiyadan o'tmagan, tekshirilmagan yoki tuzatilmagan o'lchov vositalarini muomalaga chiqarishni va qo'llashni to'xtatish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga bunday vositalarni muomaladan chiqarish zarur bo'lganda ularni muomaladan olish to'g'risida bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar berish;

Xo'jalik faoliyatining sub'yektlari tomonidan berilgan ko'rsatmalar yoki qarorlar bajarilmagan taqdirda davlat inspektorlari zarur materiallarni prokuratura yoki sud organlariga yuboradilar.

5. Standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati organlari amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilishga va ularga berilgan huquqlardan foydalanishda va yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirishda umumdavlat manfaatlariga rioya qilishga, standartlarga va metrologiya qoidalariga rioya qilish va o'lchovlarning yagonaligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarda idoraviy va tor mahalliychilikning har qanday ko'rinishlarining oldini olishga da'vat etilgandir.

Davlat inspektorlari ularga yuklatilgan vazifalar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi, davlat va tijorat sirini oshkor qilganliklari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradilar.

6. Davlat inspektorlarining xatti-harakatlari ustidan yuqori turgan mansabdor shaxsga, agar qonunchilikda shikoyat qilishning o'zgacha tartibi belgilanmagan bo'lsa, 10 kun muddatda shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat qilish shikoyat qilingan qarorning bajarilishini to'xtatmaydi.

Davlat inspektorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kechiktirilmasdan, biroq shikoyat tushgan kundan boshlab 15 kun muddatdan kechikmay, qo'shimcha ravishda o'rganishni va tekshirishni

talab etuvchi shikoyatlarni ko'rib chiqish esa bir oygacha muddatda amalga oshiriladi.

7. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari davlat inspektorlariga ularga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlar (belgilangan tartibda xizmat xonalari, aloqa vositalari, transport va boshqalar bilan ta'minlash) yaratib berishga majburdirlar.

Standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati organlari faoliyatiga chet tashkilotlarning aralashuvi, standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga ularning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish maqsadida qanday shaklda bo'lmasin ta'sir ko'rsatish man etiladi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni keltirib chiqaradi.

8. Standart va o'lchov vositalari ustidan nazorat organlari o'z ishini boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari) matlubotchilar jamiyati va boshqalar bilan mustahkam hamkorlikda olib boradilar.

9. Xo'jalik faoliyati subyektining oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining 20 foizidan ortiq bo'lgan jarimalarni undirish unga undiriladigan summani undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oy mobaynida to'lovlarni har oyda bo'lib-bo'lib to'lash imkonini bergan holda amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasining standartlar va o'lchov vositalari ustidan nazoratni qaysi meyoriy xujjat talabi bo'yicha olib boriladi?

2. Davlat inspektorlariga yuklatilgan vazifalar nimalardan iborat?

3. Sinov laboratoriyalari faoliyati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini kimlar amalga oshiradi?

### **3 -AMALIY MASHG'ULOT**

**Metrologiya sohasidagi atamalarni qo'llashning me'yoriy asoslari**

*Ishning maqsadi: Metrologiya sohasidagi atamalar va ta'riflarni O'zDSt 8.010 standarti asosida o'rganish.*

Metrologiyaning inson faoliyatining barcha jabhalarini rivojlantirish uchun qanchalik muhimligi, metrologik me'yorlar va qoidalarning Xalqaro va tarmoqlararo ahamiyatining qanchalik muhimligi hisobga olinadigan

bo'lsa, metrologik atamalarning yagona bo'lishi va qabul qilingan tushunchalarga qat'iy amal qilish zarurligi bir-birini o'zaro tushunish va harakatlarni muvofiqlashtirishda qanchalik muhim omil bo'lib hisoblanishi o'z-o'zidan tushunarli bo'lib qoladi. Shu sababli metrologik atamalar sohasidagi hujjatlar milliy darajada ham, Xalqaro darajada ham ishlab chiqiladi.

*Hozirgi kunda mazkur sohada quyidagi Xalqaro hujjatlar amal qiladi:*

Yettita yetakchi Xalqaro Tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan «Metrologiya sohasidagi umumiy va asosiy atamalar Xalqaro lug'ati» (VIM) (1993): mazkur tashkilotlarning manfaatlar doirasi u yoki bu darajada metrologiya bilan bog'lanadi. Ushbu obro'li Xalqaro tashkilotlar quyidagilardir.

- O'lchovlar va tarozilarning Xalqaro byurosi – O'AXB (rus.MBMV, ingl.BIPM);
- Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – XYeK (rus. MEK, ingl.IYeC);
- Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilot (QIML) – (rus. MOZM, ingl. OIML);
- Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro Tashkilot – SXT (rus. ISO, ingl. ISO);
- Sof va amaliy kimyo Xalqaro Uyushmasi – SAKXU (rus. IYUPAK, ingl. IUPAC);
- Sof va amaliy fizika Xalqaro Uyushmasi – SAFXU (rus. IYUPAP, ingl. IUPAP);
- Klinik kimyo Xalqaro Federasiyasi – KKXF (rus. MFKX, ingl. IFCC).
- «Qonunlashtiruvchi metrologiya atamaları Xalqaro lug'ati» (ingl. VIML), 2000 yilda MQXT (MOZM) tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda metrologik atamalar va ularning ta'riflari O'z DSt 8.010 (O'z DSt 8.010.1:2002, O'z DSt 8.010.2:2003, O'z DSt 8.010.3:2004, O'z DSt 8.010.4:2002) seriyasidagi O'zbekiston Davlat Standartlari bilan o'rnatilgan.

O'zDst 8.010 Ushbu O'zbekiston davlat standarti "O'zbekiston Respublikasining o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi.

Metrologiya atamalar va ta'riflar" umumiy sarlavha bilan birlashtirilgan mantiqan tugallangan va tarkiban mustaqil to'rt qismdan iborat:

- 1-qism. Asosiy va umumiy atamalar;
- 2-qism. O'lchash vositalari va ularning parametrlari;
- 3-qism. Metrologik xizmat;
- 4-qism. Analitik tekshiruvni metrologik ta'minlash.

Metrologiya va o'lchash texnikasi sohasidagi milliy atamalarni unifikatsiyalash (birxillashtirish) va uyg'unlashtirish, turli sohalarning ko'rsatilgan yo'nalishda ishlaydigan mutaxassislarining bir-birlarini o'zaro tushunishlari va harakatlarini muvofiqlashtirishga ko'maklashish, xorijiy sheriklar bilan iqtisodiy, ilmiy va texnik aloqalarni osonlashtirish maqsadida qabul qilingan.

RMG 29-99 tavsiyalari Davlatlararo tavsiyalar va metrologiya sohasidagi Xalqaro atamalar lug'atlari bilan o'rnatilgan atamalarga asoslanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan Davlat atamalar standartlarida quyidagi atamalar va ta'riflar keltirilgan:

**O'lchashlarning birligini ta'minlash:** xizmatlar va organlarning o'lchashlarning birligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan qonunchilik hujjatlari va me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'lchashlarning birliligiga erishish va uni ushlab turishga qaratilgan faoliyati.

**O'lchashlarning birligini ta'minlash tizimi:** o'lchashlarning birligining berilgan darajasini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan subyektlar, me'yorlar, vositalar va faoliyat turlarining jamlanmasi.

**O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning birligini ta'minlash Davlat tizimi (O'zO'DT):** Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini qo'llash sohalarida (O'z DSt 8.002 bo'yicha), mamlakat hududida metrologiya bo'yicha milliy organ tomonidan tasdiqlanadigan yoki amalga kiritiladigan o'lchashlarning birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni otkazishning talablari, qoidalari, holatlari, me'yorlari, protseduralari va tartibini belgilab beruvchi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan Xalqaro, Davlatlararo va Milliy me'yoriy va uslubiy hujjatlar majmuasi.

**Metrologiya bo'yicha milliy organ:** mamlakatda o'lchashlarning birligini ta'minlash bo'yicha ishlarga rahbarlik qilishni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan davlat boshqarish organi – O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.

**O'lchash jarayoni:** kattalikning qiymatini aniqlash bo'yicha bajariladigan operatsiyalar jamlanmasi (O'z DSt ISO 9000).

**O'lchashlarni boshqarish tizimi:** metrologik tasdiqlashga va o'lchashlar jarayonlarini uzluksiz boshqarishga erishish uchun zarur



bo'ladigan o'zaro bog'langan va o'zaro harakatlarda bo'lgan elementlar jamlanmasi (O'z DSt ISO 9000).

**Metrologik tasdiqlash:** o'lchash jihozlarining ularning maqsadli foydalanishga nisbatan qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlaydigan zaruriy operatsiyalar jamlanmasi (O'z DSt ISO 9000).

**Metrologiya xizmati:** o'lchashlarni boshqarish tizimini o'rnatish va amalga oshirish uchun ma'muriy va texnik mas'uliyatni zimmasiga oladigan xizmat (O'z DSt ISO 9000).

O'zbekiston hududida qo'llaniladigan har qanday me'yoriy va texnik hujjatlarda faqatgina rasmiy ravishda o'rnatilgan metrologik atamalardan foydalanish lozim bo'ladi.

“Metrologiya to'g'risida”gi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- «metrologiya» — o'lchashlar, uslublar va o'lchashlarning birligini ta'minlash vositalari va talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari to'g'risidagi fan;
- «o'lchashlarning birligi» — o'lchashlarning ularning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va o'lchashlarning xatoliklari berilgan ehtimollik bilan ma'lum bo'lgan holati;
- «o'lchash vositalari» — o'lchashlar uchun foydalaniladigan va me'yorlangan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnik vositalar;
- «birlik etaloni» — kattalikning birligini uning o'lchamlarini boshqa o'lchash vositalariga uzatish maqsadida qayta yaratish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi;
- «davlat etaloni» — vakolatli milliy organning qarori bilan O'zbekiston Respublikasi hududida kattalik birligining o'lchamini o'rnatish uchun boshlang'ich etalon sifatida tan olingan etalon;
- «metrologiya xizmati» — davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog'i va ularning o'lchashlarning birligini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;
- «davlat metrologiya nazorati» — davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya qoidalariga rioya qilinishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat;
- «o'lchash vositalarini qiyoslash» — davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan (boshqa vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan) o'lchash vositalarining o'rnatilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar jamlanmasi;
- «o'lchash vositalarini kalibrlash» — kalibrlash laboratoriyasi (markazi) tomonidan metrologik xarakteristikalarning amaldagi

qiymatlarini va o'lchash vositalarining qo'llash uchun yaroqliligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar jamlanmasi;

- «o'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish» — metrologiya xizmati tomonidan O'zbekiston Respublikasida yolg'iz tartibda ishlab chiqarilgan (yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga yolg'iz nusxalarda olib kirilgan) o'lchash vositalarining ularning xususiyatlarini diqqat bilan tekshirish asosida qo'llash uchun yaroqli deb tan olinishi;

- «metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarni akkreditatlash» — metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarning belgilangan akkreditat sohasida o'lchashlarning birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini rasmiy ravishda tasdiqlash;

- «yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini, o'lchash vositalarini kalibrlaydigan kalibrlash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditatlash» — yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari, kalibrlash laboratoriyalarining (markazlarining) belgilangan sohada o'lchash vositalarini kalibrlash bo'yicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini rasmiy ravishda tasdiqlash;

- «o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatlashdan o'tkazish» — o'lchashlarni bajarish uslubiyotini unga nisbatan qo'yiladigan metrologik talablarga muvofiqlikni baholash va tasdiqlash maqsadida tadqiq qilish;

- «o'lchashlarni bajarish uslubiyoti» — ularning bajarilishi o'lchashlarning natijalarini ma'lum xatolik bilan olishni ta'minlaydigan qoidalar va operatsiyalar jamlanmasi.

- «sinovlarni o'tkazish vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish» — sinovlarni o'tkazish vositalarining me'yorlangan texnik xarakteristikalarining texnik tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash;

### **Nazorat savollari**

1. Metrologik atamalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni sanab bering.
2. O'lchashlarning birligini ta'minlash Davlat tizimi nima?
3. Metrologiya sohasida akkreditatlash nima?
4. "O'lchash vositalari" "Sinovlarni o'tkazish vositalari" dan nima bilan farq qiladi?

## 4 – AMALIY MASHG‘ULOT

### **Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy tuzilishi. Milliy metrologiya institutining faoliyatini o‘rganish**

*Ishning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati va milliy metrologiya instituti davlat korxonasi faoliyatining asosiy vazifalarini o‘rganish.*

### **O‘zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi «Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-6240 -son Farmoniga asosan O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi** (keyingi o‘rinlarda — **O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi**) tashkil etildi. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi «O‘zstandart» agentligining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi 114-sonli qaroriga asosan “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

«Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida», «Standartlashtirish to‘g‘risida», «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida», «Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida», «Metrologiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, o‘lchashlarning yagona birlikda

bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta’minlash;

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro standartlarni, shu jumladan, sifat menejmenti tizimi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash asosida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishga doir yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

Texnik jihatdan tartibga solish sohasini rivojlantirish hamda mazkur sohada ilmiy-texnik axborotni tarqatish, shuningdek, sohani xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta’minlash;

### *Tashkiliy tuzilma*

## **O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy tuzilmasi**

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat korxonasi

“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasi

“O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat korxonasi

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va shaharlardagi filiallari\*(yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va shaharlardagi filiallari\*(yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahardagi bo‘limlari (yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan)

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar (12), Qo‘qon, Olmaliq, Bekobod  
va Chirchiq shahridagi filiallari.**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi  
PQ-5133-son qaroriga 2-ilova  
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy  
apparatining tuzilishi**

	Hay’at		Bosh direktor		Yordamchi
	Maslahatchi				
Bosh direktorning birinchi o‘rinbosari	Bosh direktor o‘rinbosari	Bosh direktor o‘rinbosari	Ma’naviy- ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha Bosh direktor maslahatchisi		
Axborot-tahlil, metodologiya va ijro intizomi boshqarmasi	Metrologiyani rivojlantirish va o‘lchov birliklari yagonaligini ta’minlash boshqarmasi	Muvofiqlikni baholash bo‘yicha texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi	Bosh direktorning matbuot kotibi va axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi		
Texnik jihatdan tartibga solish siyosatini amalga oshirish Bosh boshqarmasi	Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish boshqarmasi	Menejment tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish boshqarmasi	Jamoatchilik va OAV bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis		
Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi	Xalqaro hamkorlik boshqarmasi	Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va kompliens nazorat bo‘limi	Kasbiy malaka va bilimlar bo‘yicha tarmoq kengashi kotibi		

Davlat nazoratini muvofiqlashtirish boshqarmasi	Hududiy sanoatni rivojlantirishda texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi	Bosh yuriskonsult	Moliyaviy ichki audit va rejalashtirish boshqarmasi
Jahon iqtisodiy tizimiga sohaning integratsiyalashuvini rivojlantirish boshqarmasi		Kadrlar bo'limi	Buxgalteriya
			Xo'jalik va devonxona ishlari shu'basi
			Murojaatlar bilan ishlash shu'basi
Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti	“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasi	“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat korxonasi	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti
“O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat korxonasi	“Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi” davlat korxonasi		

**“O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g‘risidagi nizom”** "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g‘risidagi va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti

to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 114-son Qarori bilan tasdiqlangan.

Agentlik huzurida quyidagi kollegial organlar tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatmoqda:

- O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Hay'ati. *Hay'at tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-maydagi 439-son qarori bilan tasdiqlangan:*

- O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Apellyatsiya kengashi. Apellyatsiya kengashining tarkibi O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Bosh direktorining 2022-yil 2-noyabrdagi 59-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

### **O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi:**

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni o'z vakolati doirasida ekspertizadan o'tkazadi;

- o'z vakolati doirasida: xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;

- mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxatini tasdiqlaydi;



- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan o‘z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o‘z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.
- O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zararli bo‘lgan moddalar, kasallik tug‘diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot uchun mo‘ljallangan buyumlar, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo‘llash bo‘yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi**

Shaharsozlik faoliyatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi**

Tabiiy resurslardan foydalanishda hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qilishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

### **Ushbu texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari o‘z vakolati doirasida:**

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari va umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash yuzasidan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga takliflar kiritadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi hamda ularni ekspertizadan o‘tkazadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tuzadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o‘tkazadi;
- umumiy texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi:**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;*

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari - O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida o‘z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari.

### **Milliy metrologiya institutining faoliyatini o‘rganish.**

O‘tgan asrning 30-yillarida Turkiston Respublikasi ichki savdoni tartibga solish Qo‘mitasi qoshida o‘lchovlar va tarozilar byurosi, 1924 yilda Standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazorati laboratoriyasi tashkil etilgan edi. Shu yilniig o‘zida O‘rta Osiyo o‘lchov va tarozilari Palatasi tashkil qilindi va u aynan O‘rta Osiyo respublikalarida metrologik xizmatlar asoschisi bo‘ldi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi boshchilik qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi davlat metrologik xizmati

ko‘p tarmoqli, texnik jihatdan to‘la jihozlangan, zamonaviy me‘yoriy va metodik xujjatlar bilan ta‘minlangan Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi, O‘zbekiston milliy metrologiya instituti, Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti, 16 ta xududiy markazlar va 148 ta yuridik shaxslar metrologik xizmatlaridan iborat bo‘lgan katta tizimdir.

O‘zbekiston milliy metrologiya institutining asosiy vazifasi respublikamizda o‘lchashlar birligini ta‘minlash orqali noto‘g‘ri o‘lchashlarning salbiy natijalaridan iste‘molchilar xuquqlari, fuqarolar sog‘lig‘i va xavfsizligi, atrof muhit hamda davlat manfaatlarini muhofaza qilish va davlatimiz eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi «O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2935-sonli qaroriga muvofiq mavjud «Milliy etalonlar markazi» davlat muassasasi, «Metrologiya xizmatlari ko‘rsatish markazi» davlat korxonasi va «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti» davlat muassasasining metrologik bo‘linmalari negizida **«O‘zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat korxonasi («O‘zMMI» DK)** tashkil etildi.

Ushbu qaroriga asosan «O‘zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat korxonasining faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari belgilandi:


O‘zbekiston Respublikasi Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha choralarni amalga oshirishi;

etalonlar, eng yuqori aniqlikdagi o‘lchov vositalarini saqlab turishi, ularni xalqaro darajada solishtirishi, shuningdek, o‘lchov birliklarini saqlashi va uzatishi;

o‘lchovlarning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqishi, metrologik nazorat natijalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha xalqaro shartnomalarni amalga oshirishi;

metrologik tekshiruvni va metrologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi.

## “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat muassasasining tashkiliy tuzilmasi



**"O‘zbekiston milliy metrologiya instituti" DKga quyidagi vazifalar yuklatilgan:**

- Metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, birlashtirilgan hududlarda va o'lchash turlari bo'yicha o'lchashlar birliligi va ishonchliligini ta'minlash;

- yuqori aniqlikdagi chiquvchi va namunaviy o'lchash vositalarini saqlash va tegishli darajada saqlab turish;

- davlat metrologiya xizmatini rivojlantirish;

- mavjud yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalari va usullarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, o'lchash, nazorat va sinash vositalarini standartlashtirish;

- o'lchash vositalari turini tasdiqlash maqsadida davlat sinovlari bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- o'lchash vositalarini metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash ishlarini tashkil qilish;

- yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini o'lchash vositalarini kalibrlash va ta'mirlash huquqiga akkreditlash.

- Ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun «O'zMMI» DKning qiyoslash laboratoriyalari yuqori aniqlikdagi qiyoslash asbob-uskunalarini hamda namunaviy o'lchash vositalariga ega.

- Bugungi kunda Metrologiya instituti tarkibida o'lchash vositalari ustidan davlat metrologik nazorati bo'yicha 7 laboratoriya faoliyat yuritadi.

### **Nazorat savollari**

1. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini qaysi organlar tashkil etadi?

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlarining vazifalari?

3. O'zbekiston milliy metrologiya instituti davlat korxonasi faoliyati xaqida tushunring?

## **5 – AMALIY MASHG'ULOT**

### **O'lchashlar birliligini ta'minlash bo'yicha konsepsiyani o'rganish**

**Ishning maqsadi:** *O'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish hamda o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari xaqida o'rganish.*

2019-2023-yillar davri uchun o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 12-dekabrda PQ-4059-son qarorini bajarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida o'lchashlar birligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

2019 — 2023-yillar davri uchun O'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi)

2019 — 2023-yillar davri uchun O'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi (keyingi o'rinlarda Amaliy chora-tadbirlar rejasi deb ataladi)

### **2019 — 2023-yillar davri uchun o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi**

Taraqqiyotning bugungi bosqichida mahsulot sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligi iqtisodiyot tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishning rentabelligi va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va davlat boshqaruvida qo'llanadigan o'lchash natijalarining aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini ta'minlamasdan, qayd etilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish doirasida respublika korxonalarini tomonidan texnologik jarayonga zamonaviy uskunalarni, shu jumladan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini nazorat qiladigan o'lchash priborlarini joriy etish bo'yicha ishlar bajarilmoqda.

Respublikada o'lchash texnikasi miqdori va yangi turlarining ko'payishi tendensiyasini hisobga olgan holda, metrologik faoliyat va uning infratuzilmasining takomillashishi doimiy ravishda O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlarga va mahalliy ishlab chiqarish, ayniqsa, kichik

biznes korxonalarini va xususiy tadbirkorlikni eng qulay rivojlantirish sharoitlariga mos bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida o'lchashlar birligini ta'minlash sohasida aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda, zarur metrologik infratuzilma yaratilgan.

Qonun hujjatlariga muvofiq yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan va o'lchashlar birligini ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradigan milliy metrologiya organi — O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbarlik qiladigan davlat metrologiya xizmati faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, o'lchashlar birligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalarning samarali hal etilishiga to'sqinlik qilayotgan alohida muammoli masalalar va salbiy hodisalar saqlanib qolmoqda. Xususan:

o'lchashlar birligini ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish masalalari hali to'liq hal etilmagan;

o'lchash vositalari tavsiflarini baholash taribotlarining qonuniyligini ta'minlash, shuningdek, ularni muomalaga kiritishda ham, ulardan foydalanish jarayonida ham, davlat tomonidan tartibga solinadigan sohada ularning yaroqliligini tasdiqlash masalalarining huquqiy tartibga solinishini qo'shimcha takomillashtirish zarurati mavjud;

respublikaning mavjud etalonlar bazasi alohida o'lchash turlari bo'yicha yuqori aniqlikdagi priborlarni metrologik tekshiruv bilan to'liq qamrab olishga imkonini bermaydi, bu esa ularni xorijiy metrologik institutlarga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi;

o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimining ishlash jarayonida vazifalarni sifatli bajarishga qodir bo'lgan malakali metrolog-mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi;

qo'llanayotgan o'lchash vositalari parkining tuzilmasi va hajmini monitoring va tahlil qilish yagona tizimi mavjud emasligi jiddiy muammo hisoblanadi, bu esa o'z navbatida, davlat va jamiyatning o'lchashlarga bo'lgan ehtiyojlarini tadqiq etish va prognoz qilish mexanizmi va metodologiyasini ishlab chiqish imkonini bermaydi.

Zamonaviy jamiyatda ko'pgina faoliyat sohalarida milliy va xalqaro ehtiyojlar bir-biriga yaqinlashadi va shuning uchun metrologiya va metrologik faoliyat sohasidagi milliy siyosat hamda mamlakat iqtisodiyoti xorijiy investisiyalar jalb qilinishi uchun eng qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlaydigan va savdoda to'siqlar yuzaga keltirishiga yo'l qo'ymaydigan darajada rivojlanishi kerak.

Shu maqsadda har bir mamlakat o'zida o'lchashlar birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish qoidalarini mujassam etgan, shuningdek, obektlar, o'z vakolatlari doirasida o'lchashlar birligini ta'minlash sohasidagi ishlarni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari va yuridik shaxslarni ifoda etadigan o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimiga ega bo'lishi kerak.

Shu munosabati bilan hozirgi paytda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, O'zbekistonning o'rnatilgan huquq tartibi va iqtisodiyotini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan himoya qilish bir tomondan, o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimining keyingi yo'nalishlarini belgilash, ikkinchi tomondan esa — mamlakatda metrologik infratuzilmani va uning ishlash prinsiplarini takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi xorijiy mamlakatlarning o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimlarini yaratish tajribasini hisobga olgan holda, Xalqaro qonunchilik metrologiya tashkilotining ko'rsatmalari va tavsiyalariga muvofiq 2019 — 2023-yillar davri uchun o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

### **Konsepsiyaning maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:**

1. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'llanadigan o'lchash natijalarining aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini oshirish yo'li bilan keng ishlab chiqarish konsepsiyasini, yuqori texnologik mahsulot parametrlarining muvofiqligi baholanishini ta'minlash;

2. metrologik faoliyatning ilmiy, texnik, normativ va tashkiliy asoslarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, respublikada o'tkazilgan o'lchash va sinash natijalarining xalqaro darajada tan olinishiga erishish;

3. fuqarolar sog'ligi va hayotini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy tovar va xizmatlarning sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan o'lchash natijalarini olishda fuqarolar, davlat va jamiyat ehtiyojlarini to'liq qondirish;

4. davlat metrologiya xizmatlari organlarining salohiyatini kuchaytirish, Konsepsiya vazifalarini amalga oshirish va metrologik xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun ularning o'рни va mas'uliyatini oshirish.

### **Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:**



➤ MOZM ko‘rsatma va tavsiyalarini hamda boshqa xalqaro talablarni hisobga olgan holda, O‘lchashlar birligini ta‘minlash milliy tizimining kompleks huquqiy tartibga solinishini ta‘minlash;

➤ metrologik faoliyat subyektlarining funksional vazifalari va mas‘uliyat sohasini aniq chegaralagan holda, O‘lchashlar birligini ta‘minlash milliy tizimining tuzilmasini takomillashtirish;

➤ O‘zbekiston Respublikasi etalonlar bazasini rivojlantirish, davlat metrologiya xizmatlari organlarining laboratoriyalarini ayniqsa respublika hududlarida modernizatsiyalash hisobiga iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlarining metrologik ta‘minot darajasini oshirish;

➤ o‘lchash vositalarini kalibrlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali mahalliy mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun sharoit yaratish;

➤ xalqaro va mintaqaviy metrologiya tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorlik qilish va uni kengaytirish mexanizmlarini rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiyotga va o‘lchashlar birligini ta‘minlash xalqaro tizimiga teng huquqli hamkor sifatida integratsiyalashuviga ko‘maklashish;

➤ kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha samarali tizim shakllantirish, o‘lchashlar birligini ta‘minlash sohasida ilmiy faoliyatni rivojlantirish;

➤ metrologiya sohasida axborot texnologiyalarining qo‘llanishini kengaytirish hamda o‘lchashlar birligini ta‘minlash tizimining ishlashida, shu jumladan bajarilayotgan ishlar va xizmatlarni axborotlashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish.

### **O‘lchashlar birligini ta‘minlash milliy tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**

- O‘lchashlar birligini ta‘minlash tizimining normativ bazasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifalariga muvofiq takomillashtirish, ularni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirishni ta‘minlash.

- Metrologiya bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va zarur bo‘lsa, metrologik faoliyatning zamonaviy rivojlanish yo‘llarini hisobga olgan holda ularni qayta ko‘rib chiqish.

- Respublikada o‘lchashlar birligini ta‘minlash masalalarini tartibga soladigan xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy

mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo'llash huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

-Xizmatlarni amalga oshirish yagona tartibini belgilash qismida metrologik ishlar va xizmatlarni o'tkazishga qo'yiladigan barcha uchun majburiy bo'lgan talablarni, ishlab chiqilayotgan hujjatlarga, ishlarga haq to'lanishiga, ularni bajarish muddatlariga, mas'ul ijrochilarga, shuningdek, metrologik tekshiruv natijalarining rasmiylashtirilishiga va O'zbekiston Respublikasi o'lchashlar birligini ta'minlash tizimidagi terminologiyaning bir xil qo'llanishiga qo'yiladigan umumiy va maxsus talablarni o'rnatish bo'yicha masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solish.

-Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va qiyosiy baholash asosida respublikada o'ramlarga qadoqlangan tovarlarni metrologik tekshiruv va nazoratdan o'tkazish bo'yicha huquqiy asoslarni shakllantirish.

-Davlat metrologiya xizmatiga kirmaydigan yuridik shaxslarning texnik bazasi asosida o'lchash vositalarining metrologik tekshiruvini amalga oshirish huquqiy masalalarini tartibga solish.

### **O'lchashlar birliligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari**

T/r	Maqsadli ko'rsatkich	O'lch. bir.	Haqiqiy qiymat	Maqsadli qiymatlar				
				2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Davlat etalonlarining soni	bir.	12	21	23	28	33	33
2.	Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosining bazasida qaydlangan O'zbekiston Respublikasi kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlar soni	bir.	-	-	3	7	13	18
3.	Davlatlararo darajada o'tkaziladigan solishtirishlar soni	bir.	6	8	11	15	19	22
4.	Boshlang'ich namunaviy o'lchash vositalari (ishchi etalonlar) miqdori	bir.	151	164	188	206	225	234
5.	Milliy darajada o'tkaziladigan solishtirishlar — laboratoriyalararo solishtirishlar soni	bir.	17	19	22	24	27	32
6.	Davlat metrologiya xizmati organlarida qo'llanadigan o'lchash texnikasi umumiy miqdoridagi zamonaviy o'lchash texnikasi ulushi	%	9,7	11,8	14,1	16,1	18,1	18,8
7.	Respublika sanoatida foydalaniladigan o'lchash vositalarining metrologik tekshiruv bilan qamrab olinganligi	%	87,6	89,1	92,3	94,5	95,2	96,1
8.	Kalibrlash ishlari hajmining qiyoslash ishlariga nisbati	%	0,01	3	8	15	23	30
9.	O'lchashlar birliligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish maqsadida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining soni	bir.	1	2	3	5	6	7
10.	O'lchashlar birliligini ta'minlash sohasida davlat standartlarini ishlab chiqish	bir.	164	178	183	191	202	207
11.	Ishlab chiqilgan (yangi o'zlashtirilgan) kalibrlash usullarining soni	bir.	40	69	102	137	174	211

Yagona o'lchash birligini ta'minlash tizimi O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni 12-moddasiga asosan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati mexanizmlari asosida amalga oshiriladi.

Agentlik tizimidagi «O'zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat korxonasi hozirgi kunda 15 o'lchash turi bo'yicha o'lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash, metrologik attestasiya qilish ishlarini olib bormoqda. Korxonada bitta sertifikatlashtirish idorasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Korxonada metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, birlashtirilgan hududlarda o'lchash birligi va ishonchliligini ta'minlash, yuqori aniqlikdagi boshlang'ich va namunaviy o'lchash vositalarini saqlash va tegishli darajada saqlab turish, mavjud yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalari va usullarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, o'lchash, nazorat va sinash vositalarini standartlashtirish kabi vazifalarni bajaradi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun korxonada laboratoriyalarida 155 yuqori aniqlikdagi birlamchi va 679 namunaviy o'lchash vositasi mavjud. Shuningdek, uzunlik, massa, bosim, vaqt va chastota,

o'zgaruvchan tok kuchlanishi, induktivlik, elektr sig'imi, suv sarfi va miqdori kabi 10 milliy boshlang'ich etalon, ya'ni yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalaridan foydalanilmoqda.

Bu esa mamlakatimizda 700 dan ortiq yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini qiyoslash imkonini beradi. 2012-2016-yillarda laboratoriyalarni rivojlantirish uchun 165 namunaviy o'lchash vositasi xarid qilinib, 341 yangi turdagi o'lchash vositasini qiyoslashga akkreditasiya doirasi kengaytirilgan.

Laboratoriyalarda qo'llaniladigan o'lchash va sinash vositalarini modernizasiya qilish va yangi turdagi o'lchash usullarini o'zlashtirish natijasida 2016-yil 2 million 252 ming dona o'lchash vositasi metrologik tekshiruvdan o'tkazildi. Joylarda metrologik xizmatning rivojlanishi natijasida viloyatlardan Toshkent shahriga qiyoslash uchun o'lchov vositalari olib kelish zarurati kamaydi. – Joriy yilda aholi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida Toshkent shahrida 3, hududlarda 33 metrologik xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etildi, – deydi «O'zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat korxonasi direktori Doniyor Qodirov bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida 2018-2020-yillar davomida yana 13 xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etish va zamonaviy o'lchov vositalari bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2018-2021-yillar uchun milliy etalon bazasini rivojlantirish uchun 15 dona etalon xarid qilinadi. Natijada yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini qiyoslash uchun xorijga olib chiqish zarurati qolmaydi.

## **6 – AMALIY MASHG'ULOT**

### **Xalqaro birliklar tizimini (SI) qo'llashning qonunchilik va me'yoriy asoslari**

*Ishning maqsadi: Xalqaro birliklar tizimini (SI) qo'llashning qonunchilik va me'yoriy asoslarini o'rganish.*

O'zbekiston Respublikasining “Metrologiya to'g'risida” gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida

kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimi (SI) birliklarni belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi.

Kattaliklar birliklarining nomlari, belgilanishi, ularni yozish va qo'llash qoidalari Texnik jihatdan tartibga solish agentligining taqdimoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Xalqaro birliklar tizimiga kiritilmagan birliklarni qo'llashga yo'l qo'yilishi mumkin».

Savdo-sotiq operatsiyalarini bajarishda, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va mahsulot sifatini nazorat qilishda ko'pincha bir xil turdagi mahsulotning parametrlari va xarakteristikalarini taqqoslash, bir nomdagi kattaliklarni turlicha o'lchash vositalari bilan turlicha sharoitlarda o'tkazilgan o'lchashlar natijalarini taqqoslash zarurati vujudga keladi. Bunday taqqoslashlar faqatgina bir xil parametrlarning qiymatlari bir xil birliklarda ifodalangan taqdiridagina mumkin bo'ladi.

Ta'riflanishiga ko'ra, "*kattalikning birligi*" – belgilangan o'lchamning unga birlikka teng bo'lgan sonli qiymat berilgan kattaligidir. .

"*Kattalikning o'lchami*" deganda berilgan obyektidagi kattalik (o'lchanadigan) tushunchasiga mos keladigan xususiyatning sonli miqdori tushuniladi.

Amaliyotda o'lchanadigan kattaliklar fizikaviy olam obyektlarining o'zaro fizikaviy tenglamalar tizimi bilan birlashadigan turli-tuman xususiyatlarini aks ettiradi. Xuddi shu tenglamalar kattaliklarning birliklarini ham o'zaro bir tizimga birlashtiradi.

Kattaliklarning birliklarini tanlashdagi shartlilik birliklar tizimlarining turli-tumanligiga olib kelgan, bu mahsulotning xarakteristikalarini taqqoslashda, o'lchashlarning natijalarini taqqoslashda, ayniqsa Xalqaro informatsiya almashinishida o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Xuddi dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham faoliyatning barcha sohalarida *faqatgina kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimining* birliklarini qo'llashga qonunan ruxsat berilgan (ruscha qisqartmasi – SI, fransuzcha SI – baynalminal tizim so'zlarining qisqartmasidan olingan).

Hozirgi kunda Xalqaro birliklar tizimi kattaliklarning qulay va universal birliklar tizimi bo'lib hisoblanadi, biroq bir qator hollarda amaliy muammolar mazkur tizimga kirmaydigan birliklarni qo'llashga majbur qiladi. Bunday birliklar, masalan, uzunlik birligi – yorug'lik yili, massa birligi - karat, *tizimdan tashqaridagi birliklar* deb ataladi.

Amaliyotda ko‘pincha tizimning boshlang‘ich birligidan ma‘lum bir marta katta yoki kichik birliklardan foydalanish qulayroq bo‘ladigan holatlar vujudga keladi. Masalan, geodeziyada kilometr (km) uzunlik birligidan foydalanish qulayroq bo‘ladi, uning o‘lchami Xalqaro birliklar tizimidagi boshlang‘ich uzunlik birligining o‘lchamidan 1000 martaga katta. Ma‘lumki SI da uzunlik birligining nomlanishi – metr, belgilanishi esa - m. Soatsozlik sanoatida *millimetr* (mm) uzunlik birligidan foydalanish qulayroq, uning o‘lchami boshlang‘ich uzunlik birligidan 1000 martaga kichik. Bunday birliklar *karrali va ulushli birliklar* deb ataladi.

Karrali va ulushli birliklarning nomlari va belgilanishlari birliklar tizimining boshlang‘ich birligining nomiga yoki belgilanishiga mos keluvchi old qo‘shimchalarni (bizning misolimizda "*kilo*" va "*milli*") yoki belgilashlarni (bizning misolimizda - "*k*" va "*m*") qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi.

*O‘zbekistonda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladigan Xalqaro birliklar tizimining birliklari va tizimdan tashqari birliklar, karrali va ulushli birliklarni hosil qilish qoidalari, birliklarning nomlanishlari va belgilanishlari va ularni qo‘llash qoidalari O‘zbekiston Respublikasining O‘zDSt 8.012 standarti bilan o‘rnatiladi.*

Xalqaro birliklar tizimining birliklaridan karrali va ulushli birliklarni hosil qilishga faqatgina o‘nlik karrali prinsipi bo‘yicha, ya‘ni Xalqaro birliklar tizimining boshlang‘ich birligining o‘lchamini  $10^n$  ga ( $n$  – musbat yoki manfiy butun son) ko‘paytirishga yo‘l qo‘yiladi. Shu sababli vaqt birliklari – minut (min), soat (h), energiya birligi - kilovatt-soat (kWh), tizimdan tashqaridagi birliklar bo‘lib hisoblanadi.

Standart tomonidan tizimdan tashqaridagi birliklarning cheklangan sonini va faoliyatning qat‘iy belgilangan sohalarida qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Masalan massa birligi karatdan faqatgina zargarlik ishida, energiya birligi kilovatt-soatdan – faqatgina elektroyenergetikada foydalanish mumkin.

Vaqtning tizimdan tashqaridagi birliklarini (minut, soat, sutka, yil) hech qanday cheklashlarsiz qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek Xalqaro birliklar tizimida temperatura birligi kelvin (belgilanishi – K) bilan bir qatorda temperaturaning tizimdan tashqaridagi birligi gradus Selsiyni (belgilanishi - °C) qo‘llashga ham yo‘l qo‘yiladi, bunda  $273,15 \text{ K} = 0 \text{ }^\circ\text{C}$ . Yassi burchakning qiymatlarini burchak graduslarida ifodalashga ham cheklashlarsiz yo‘l qo‘yiladi (yassi burchakning Xalqaro birliklar tizimidagi birligi - radian).

Boshqa tomonlama, standartda bir qator an'anaviy tizimdan tashqaridagi birliklar, masalan, quvvat birligi – ot kuchi yo'q. Shundan kelib chiqqan holda, bunday tizimdan tashqaridagi birliklarni qo'llashga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Xalqaro belgilashlar har qanday tekstda qo'llanilishi mumkin. Rus tilidagi ilmiy-texnik nashrlarda birliklarning yoki mazkur standart bilan o'rnatilgan belgilashlarini qo'llashga, yoki GOST 8.417 bilan o'rnatilgan ruscha belgilashlarni qo'llashga yo'l qo'yiladi.

Bitta tekstda birliklarning har xil turdagi belgilashlarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

O'lchash vositalarida va o'lchash vositalariga hamrohlik qiluvchi hujjatlarda kattaliklarning birliklarining faqatgina Xalqaro belgilanishlarini qo'llashga yo'l qo'yiladi.

*Mahsulotlarga mahkamlangan shchitoklarda va mahsulotlarning markirovkasida parametrlarning qiymatlari faqatgina kattaliklar birliklarining Xalqaro belgilanishlaridan foydalanish bilan ifodalanadi.*

Eksport qilinadigan mahsulotlarda va mazkur mahsulotlarning hujjatlarida kattaliklarning RST O'z 8.012 da ko'rsatilmagan birliklari qo'llanilishi mumkin, biroq bu faqatgina kattaliklarning bunday birliklarini qo'llash yetkazib berish shartnomasida maxsus ko'rsatilgan taqdirda mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda qonunchilik tomonidan faoliyatning barcha sohalarida faqatgina Xalqaro birliklar tizimining (ruscha qisqartmasi SI) birliklarini qo'llashga yo'l qo'yiladi.

O'zbekistonda qo'llashga yo'l qo'yiladigan Xalqaro birliklar tizimining birliklari va tizimdan tashqari birliklar, karrali va ulushli birliklarni hosil qilish qoidalari, birliklarning nomlanishlari va belgilanishlari va ularni qo'llash qoidalari O'zbekiston Respublikasining O'zDSt 8.012 standarti bilan o'rnatiladi.

SI ning birliklar tizimi asosiy birliklar va hosilaviy birliklardan tashkil topadi. Ulardan quyidagilar asosiy birliklar bo'lib hisoblanadi:

Birlik	O'lchamliligi	Nomlanishi	Belgilanishi	Ta'rifi
Uzunlik	<i>L</i>	metr	m	Metr bu yorug'lik 1/299792458 s vaqt oralig'ida vakuumda bosib o'tadigan masofa [XVII O'TBK <sup>x</sup> ) (1983 y.), 1-qaror]

Massa	$M$	kilo-gramm	kg	Kilogramm bu massa birligi bo'lib Xalqaro kilogramm-prototipining massasiga teng [I O'TBK (1889 y.) va III O'TBK (1901 y.)]
Vaqt	$T$	sekund	s	Sekund bu seziiy-133 atomi asosiy holatining ikki o'ta nozik sathlari orasidagi bir-biriga o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9 192 631 770 davridir [XIII O'TBK (1967 y.), 1-qaror]
Elektr toki (elektr tokining kuchi)	$I$	amper	A	Amper bu vakuumda bir-biridan 1 m oraliqda joylashgan, cheksiz uzun, o'ta kichik dumaloq ko'ndalang kesimli ikki parallel to'g'ri chizikli o'tkazgichlardan tok o'tganda o'tkazgichning har 1 m uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ N ga teng o'zaro ta'sir kuchini hosil qila oladigan o'zgarmas tok kuchi [O'TXK <sup>x</sup> ) (1946 y. ) 2-qaror, IX O'TBK (1948 y.) ma'qullangan].
Termodinamik harorat	$\theta$	kelvin	K	Kelvin bu termodinamik harorat birligi bo'lib u suvning uchlanma nuqtasi termodinamik haroratning 1/273,16 qismiga teng [XIII O'TBK (1967 y.) 4-qaror]
Modd a miqdori	$N$	mol'	mol	Mol' bu massasi 0,012 kg bo'lgan uglerod-12da qancha atom bo'lsa, o'z tarkibiga shuncha elementlarini olgan tizimning modda miqdoridir. Mol'ni tadbiq etishda elementlari guruhlangan bo'lishi lozim va ular atom, molekula, ion,



				elektron va boshqa zarrachalar guruhlaridan iborat bo‘lishi mumkin [XIV O‘TBK (1971 y.). 3-qaror]
Yorug‘lik kuchi	<i>J</i>	kandela	cd	Kandela bu berilgan yo‘nalishda $540 \cdot 10^{12}$ Hz chastotali monoxramatik nurlanishni tarqatuvchi va shu yo‘nalishda energetik yorug‘lik kuchi $1/683$ W/sr ni tashkil etuvchi manbaning yorug‘lik kuchidir. [XVI O‘TBK (1979 y.), 3-qaror]

### Nazorat savollari

1. “Kattalikning birligi” deganda nima tushuniladi?
2. O‘zbekiston hududida qonunchilik tomonidan qaysi birliklar qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilgan?
3. Kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimiga kirmaydigan birliklarini qo‘llash mumkinmi?
4. Masalan, qadoqlangan tovarlarning etiketkalarida mahsulotning massasini belgilash uchun qaysi birliklarni qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi?

## 7 – AMALIY MASHG‘ULOT

### Qonunlashtiruvchi metrologiya sohasi bo‘yicha halqaro tashkilotlar va me‘yoriy hujjatlar

*Ishning maqsadi:* Metrologiya bo‘yicha Xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o‘rganish.

O'lchashlarning birligini ta'minlash metrologiya bo'yicha Xalqaro tashkilotlarning ham vazifasi bo'lib hisoblanadi. Quyida misol sifatida metrologiya bo'yicha ikkita eng yirik Xalqaro tashkilotlar qisqacha ko'rib chiqiladi.

### **Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilot**

Qonunlashtiruvchi metrologiya Xalqaro tashkiloti (QMXT rus. MOZM) 1955 yilda tashkil qilingan. QMXT ning roli o'lchashlar va o'lchash vositalari bo'yicha turli mamlakatlarda milliy hujjatlar sifatida nashr qilinadigan ma'muriy va texnik reglamentlarni Xalqaro darajada uyg'unlashtirishdan iborat.

Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilotning asosiy vazifasi – Xalqaro savdo-sotiq va texnik almashinishda o'lchash uslublarining birligini o'rnatishga va o'lchashlarning xatolarini baholashga, o'lchash vositalarining qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni Xalqaro darajada hal qilishga ko'maklashishi lozim bo'lgan qonunchilik mazmunidagi va texnik mazmundagi Xalqaro hujjatlar va Xalqaro tavsiyanomalarni ishlab chiqishdan iborat.

Shu bilan birgalikda tashkilotning ishtirokchi mamlakatlari o'rtasida qonunlashtiruvchi metrologiya sohasi bo'yicha informatsiya almashinish va ularni kooperatsiyalash, rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy metrologiya xizmatlariga yordam ko'rsatish ham QMXT vazifalari bo'lib hisoblanadi.

Quyidagilar QMXT organlari bo'lib hisoblanadi; Prezident Kengashi va rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha Kengash bilan birgalikda qonunlashtiruvchi metrologiya Xalqaro qo'mitasi;

Qonunlashtiruvchi metrologiya sohasida Xalqaro Komiteti (rus MKZM); Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Byurosi (rus. MBZM); sekretariat-pilotlar (SP) va sekretariat-ma'lumot beruvchilar (SMB) deb ataluvchi texnik ishchi guruhlar, bunda SMB SP tarkibiga kiradi.

QMXT har to'rt yilda bir marta chaqiriladi. Konferensiya QMXT maqsadlari va vazifalari bo'yicha siyosatni yurgizadi, Xalqaro tavsiyanomalarni tasdiqlaydi, Konferensiyalar o'rtasidagi davr uchun Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkilotining byudjetini muhokama qiladi.

Konvensiyaga ko'ra Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkilotining ishtirokchi mamlakatlari Konferensiya qarorlarining tadbiq qilinishi uchun ma'naviy javobgar bo'lib hisoblanadi.

*Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Qo‘mitasi*– Konferensiyaning ishchi organi bo‘lib, har 2 yilda bir marta chaqiriladi. Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Qo‘mitasi SP va SMB larning ishchi rejalarini ma‘qullaydi, ularning ishini nazorat qiladi, Xalqaro hujjatlarni qabul qiladi, hodimlarni ishga tayinlaydi va Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Byurosining (Metrologiya Qonunchiligi Xalqaro Byurosining) ishini yo‘naltiradi. Qo‘mita 6 yilga saylab qo‘yiladigan Prezident va 1- va 2- Vitse-Prezident tomonidan boshqariladi.

*Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Byurosi* –Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilot ijro qiluvchi organidir. Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Byurosi Konferensiyalar va Komitet yig‘ilishlarini tayyorlaydi va o‘tkazadi, Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkiloti (sekretariatlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkilotining ishlarining natijalarini qayd qiladi, ularni nashr qilishni tashkil qiladi, boshqa Xalqaro tashkilotlar va muassasalar bilan aloqalarni ta‘minlaydi. Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Byurosi huzurida hujjatlar Markazi faoliyat ko‘rsatadi.

*Sekretariat-pilotlar va sekretariat-ma‘lumot beruvchilar* Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkilotining (Metrologiya Qonunchiligi Xalqaro Tashkilotining) Xalqaro hujjatlar va Xalqaro tavsiyanomalarni ishlab chiqish bo‘yicha texnik ishlarini olib boradi.

*Xalqaro tavsiyanomalarga* qonunlashtiruvchi metrologiya (metrologiya qonunchiligi) bo‘yicha milliy qo‘llash uchun ishlab chiqiladigan qoidalar jamlanmasining namunasi sifatida qaraladi, *Xalqaro hujjatlarga esa* – qonunlashtiruvchi metrologiyaning (metrologiya qonunchiligining) masalalaridan biri bo‘yicha ularning nashr qilinishi manfaatdor mamlakatlar uchun foydali bo‘ladi deya e‘tirof etiladigan informatsiya va maslahatlarning jamlanmasi sifatida qaraladi.

Hujjatlar va tavsiyanomalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkiloti hujjatlar Markazini yuritadi, unda qonunchilik harakteridagi va informatsion harakterdagi hujjatlar – qonunlar, qarorlar, turli mamlakatlardagi o‘lchovlar va og‘irliklar bo‘yicha dekretlar, hisobotlar, Xalqaro tashkilotlarning kataloglari, standartlar, qoidalar, yo‘riqnomalar, metrologiya va o‘lchash texnikasi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plangan. Yangi ma‘lumotlar har chorakda (kvartalda) Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkilotining Byulletenida nashr qilinadi. Byulletenda Qonunlashtiruvchi

Metrologiya Xalqaro Tashkiloti tomonidan qabul qilingan barcha Xalqaro hujjatlar va Xalqaro tavsiyanomalarning nomlari chop qilinadi.

Shtab-kvartirasi Parijda joylashgan Qonunlashtiruvchi Metrologiya Xalqaro Tashkiloti qonunlashtiruvchi metrologiya (metrologiya qonunchiligi) bo'yicha Xalqaro hujjatlar va Xalqaro tavsiyalarni ishlab chiqadi, ular metrologiya bo'yicha milliy organlarning me'yoriy-huquqiy bazasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash (rus. MGS)**

1992 yil 13 martda MDX mamlakatlari standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish va standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashni tashkil qilish to'g'risida hukumatlararo kelishuvni imzolaganlar.

Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDX) mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organlarining potentsiallari va resurslarini birlashtirish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va ilgari to'plangan tajribadan birgalikda foydalanish va ularni takomillashtirish, shuningdek mazkur faoliyat yuritish sohalarida yagona texnik siyosat yuritishni amalga oshirish imkonini bergan.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning texnik siyosati ishtirokchi davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organlari, ilmiy-texnik komissiyalar (ishchi guruhlar) va standartlashtirish bo'yicha Davlatlararo Texnik Komitet tomonidan shakllantiriladi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha doimiy ravishda ilmiy-texnik komissiyalar yoki ishchi guruhlar, vaqt va chastotani o'lchashlarning birligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risidagi Hukumatlararo Kelishuvni amalga oshirish bo'yicha vakolatli vakillar Kengashi, shuningdek 230 dan oshiq standartlashtirish bo'yicha Davlatlararo Texnik Komitetlar ishlaydi.

Minsk shahrida joylashgan Standartlar Byurosi hozirgi kunda Kengashning ishchi organi bo'lib hisoblanadi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning yig'ilishlarida barcha Hamdo'stlik mamlakatlarining, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ijroiya qo'mitasining,

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari tarmoq vazirliklari va idoralarning, dunyoning turli mamlakatlarining standartlashtirish bo'yicha Xalqaro va milliy tashkilotlarining delegasiyalari doimiy ravishda ishtirok etadi.

Kengashga rotasiya (almashtirib qo'yish) asosida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning ishtirokchi mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organlarining rahbarlari boshchilik qiladi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni, jumladan Davlatlararo standartlar, qoidalar, tavsiyalar va klassifikatorlarni ishlab chiqish;

- davlatlararo standartlar, boshqa mamlakatlarning Xalqaro, hududiy va milliy standartlari fondini shakllantirish, saqlash va yuritish, Kelishuvning ishtirokchi davlatlarini mazkur standartlar bilan ta'minlash;

- etalonlar bazasini va fizikaviy kattaliklar birliklarining o'lchamlarini uzatish tizimini yuritish va rivojlantirish;

- davlatlararo vaqt va chastota xizmatini yuritish;

- o'lchash vositalari, standart namunalar, moddalar va materiallarning xususiyatlari to'g'risidagi standart spravochnik ma'lumotlari informatsion fondlarini yuritish;

- o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish, metrologik attestatlashdan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash natijalarini o'zaro tan olish bo'yicha qoidalar va protseduralarni ishlab chiqish;

- akkreditlangan sinovlardan o'tkazish, qiyoslash, kalibrlash va o'lchash laboratoriyalarini (markazlarini), sertifikatlashtirish organlarini, mahsulot va sifat tizimlarining sertifikatlarini o'zaro tan olish bo'yicha qoidalar va protseduralarni ishlab chiqish;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat sohasida Xalqaro hamkorlik qilish.

Mazkur faoliyatning huquqiy asosini standartlashtirish bo'yicha milliy organlar tomonidan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash doirasida tuzilgan Hukumatlararo kelishuvlar tashkil qiladi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash Xalqaro tashkilotlar (Standartlashtirish bo'yicha

Xalqaro tashkilot (rus. ISO), Xalqaro Elektrotexnika komissiyasi (rus. MEK)) va Yevropa Ittifoqi Standartlashtirish tashkiloti (ingl. SEN) tomonidan standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkilot deya tan olingan va unga ISO va MEK da qabul qilingan qoidalarga muvofiq "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Yevroosiyo tashkiloti" (ingl. EASC) nomi berilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan tashkilotlar bilan informatsiya va me'yoriy hujjatlar bilan almashinish hamda o'tkaziladigan tadbirlarda o'zaro ishtirok etishni ko'zda tutadigan hamkorlik qilish to'g'risida uzoq muddatli Kelishuvlar imzolangan.

Imzolangan Kelishuvlarga muvofiq EASC Xalqaro standartlar va Yevropa standartlarini Davlatlararo standartlar orqali, EASC ga a'zo alohida ishtirokchi mamlakatlar esa – milliy standartlar orqali qo'llash huquqiga ega.

Bu Davlatlararo va milliy standartlarni EASC ga a'zo ishtirokchi davlatlarning bu tashkilotlarga a'zo ekanligi yoki a'zo emasligidan qat'iy nazar Xalqaro standartlar bilan ham, Yevropa standartlari bilan ham maksimal darajada uyg'unlashtirishga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Davlatlararo standartlar fondi 19300 dan oshiq me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. 1992 yildan boshlab 3800 ta Davlatlararo me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Fondni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning Standartlar Byurosi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashda ishtirokchi davlatlarning milliy organlari bilan birgalikda yuritadi.

Davlatlararo me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ularning talablarini Xalqaro, hududiy va ilg'or milliy standartlar bilan uyg'unlashtirish amalga oshiriladi.

Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik qilishidagi texnik to'siqlarni bartaraf qilishga qaratilgan yagona me'yoriy-texnik ta'minotni ushlab turish uchun shart-sharoitlarni yaratadi, shuningdek standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashda ishtirokchi davlatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni Xalqaro bozorlar va Yevropa bozorlariga chiqarishga ko'maklashadi.

1998 yilgacha davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ishlar har yili ishlab chiqiladigan rejalarga muvofiq amalga oshirilgan. 1998 yilda davlatlararo standartlashtirish bo'yicha 1998-2000 yillarga mo'ljallangan

dastur, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning 19-yig'ilishida esa (2001 yil may oyi, Dushanbe shahri) 2001-2003 yillarga mo'ljallangan xuddi shunday Dastur ishlab chiqilgan.

Tadbirkorlar tegishli informasiya va Xalqaro, davlatlararo va milliy me'yoriy hujjatlarni olish uchun Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga murojaat qilishlari lozim bo'ladi.

Eksport qilishga qaratilgan mahsulotlarga Xalqaro standartlarni (ISO, MEK, YeN) yoki Xalqaro standartlar (XS) bilan uyg'unlashtirilgan milliy, davlatlararo standartlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi (bunda milliy hujjatning belgilanishida Xalqaro standartning belgilanishi ko'rsatilishi lozim).

Agar eksport qilishga qaratilgan mahsulot ma'lum bir davlatga yetkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda Xalqaro standart bilan bir qatorda importer mamlakatning milliy standarti ham qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlardan tashqari metrologiya bo'yicha quyidagi hududlararo tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatadi:

- Davlat Metrologiya Muassasalarining Yevroosiyo Hamkorlik Tashkiloti (ingl. KOOMET);

- Milliy Metrologiya Institutlarining Yevropa Assosiatitsiyasi (ingl. EURAMET);

- Qonunlashtiruvchi Metrologiya sohasida Yevropa Hamkorlik Tashkiloti (ingl. WYeLMEC);

- Akkreditatsiyalar bo'yicha Yevropa Hamkorlik Tashkiloti (ingl. EA);

- Osiyo-Tinch Okeani Metrologiya Dasturi (ingl. APMP);

- Qonunlashtiruvchi Metrologiya bo'yicha Osiyo-Tinch Okeani Forumi (ingl. APLMF);

- Akkreditatsiyalar bo'yicha Osiyo-Tinch Okeani Hamkorlik Tashkiloti (ingl. APLAC);

- Internatsional Metrologik Laboratoriyalari Milliy Konferensiyasi (ingl. NCSLI);

- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning metrologiya bo'yicha Ilmiy-Texnik Komissiyasi (rus. NTKMetr);

- Afrika Ichki Metrologiya Tizimi (ingl. AFRIMETS);

- Amerika Mamlakatlari O'rtasidagi Metrologiya Tizimi (SIM)

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi KOOMET ishida faol ishtirok etadi.

## **KOOMET ning maqsadlari quyidagilardir:**

- o‘lchovlarni bir xillashtirish, o‘lchashlarning birligini va o‘lchashlar natijalarining talab qilinadigan aniqligini ta’minlash masalalarining samarali hal qilinishiga ko‘maklashish;
- milliy iqtisodiyotlarning hamkorligini rivojlantirishga va Xalqaro savdo-sotiqda texnik to‘siqlarning bartaraf qilinishiga ko‘maklashish;
- Yevroosiyo mamlakatlari metrologiya xizmatlarining faoliyatini boshqa hududlardagi xuddi shunday xizmatlarning faoliyati bilan yaqinlashtirish.

### **Nazorat savollari**

1. Xalqaro, hududiy, davlatlararo tashkilotlar qanday maqsadlar uchun tashkil qilinadi?
2. Umum tomonidan tan olingan qaysi Xalqaro, davlatlararo tashkilotlarni bilasiz?
3. KOOMYeT ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

## **8 – AMALIY MASHG‘ULOT**

### **O‘lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash**

*Ishning maqsadi: O‘lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligining asoslarini, davlat metrologik nazorati doirasida qo‘llaniladigan o‘lchash vositalarini va ularning qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlashning asosiy holatlarini o‘rganish.*

O‘z DSt 8.007:2002 «O‘DT. O‘lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash. Asosiy holatlar» ga muvofiq o‘lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- ularning turini tasdiqlash;
- metrologik attestatlashdan o‘tkazish;
- gigiyenik talablarga muvofiqlikni sertifikatlashtirish (oziq-ovqat mahsulotlari bilan bevosita kontaktda ekspluatatsiya qilinadigan o‘lchash vositalari uchun);



- maxsus talablarga muvofiqlikni sertifikatlashtirish (tibbiyot yoʻnalishidagi oʻlchash vositalari uchun);
- xavfsizlik talablariga muvofiqlikni sertifikatlashtirish (majburiy tartibda sertifikatlashtirishga tortiladigan oʻlchash vositalari uchun);
- birlamchi va keyingi qiyoslashlar;
- ularni tayyorlash, oʻrnatish, taʼmirlash, ekspluatatsiya qilish ustidan nazorat oʻrnatish.

**Oʻlchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligi:** oʻlchash vositalarining metrologik, texnik talablarga, shuningdek xavfsizlik talablari, gigiyenik talablar va maxsus talablarga muvofiqligi.

**Metrologik talablar:** oʻlchash vositalarining metrologik karakteristikalarini va ularda ushbu karakteristikalar taʼminlanadigan shartlar.

**Texnik talablar:** oʻlchash vositalarining, ularning texnik takomillashish imkoniyatini chegaralamaydigan asosiy texnik karakteristikalarini.

Eslatma – texnik talablar oʻlchash vositalarining meʼyorlangan metrologik xarakteristikalarining optimal sonini, oʻlchashlarning ishonchli natijalarini olishni, oʻlchashlar natijalarini soxtalashtirish xavfining istisno qilinishining maksimal ishonchliligini taʼminlaydi.

**Oʻlchash vositalarining turini tasdiqlash:** vakolatli davlat organi (davlat metrologiya xizmati) tomonidan chiqariladigan - oʻlchash vositalarining oʻrnatilgan talablarga muvofiqligini shahodatlaydigan qaror.

**Oʻlchash vositalarining turi:** vazifasi boʻyicha bir xil, bir xil ishlash prinsipiga asoslangan, bir xil konstruksiyaga ega boʻlgan va bitta texnik hujjatlar boʻyicha tayyorlangan oʻlchash vositalarining jamlanmasi.

Bitta turiga tegishli boʻlgan oʻlchash vositalari turli xil modifikasiyalarga ega boʻlishi mumkin (masalan, oʻlchashlar diapazoni boʻyicha farq qilishi mumkin).

**Turini tasdiqlash maqsadida sinovlaridan oʻtkazish:** davlat metrologiya xizmatiga taqdim qilingan bitta turdagi oʻlchash vositalarining namunalarini tadqiq qilish.

**Oʻlchash vositalarini attestatlashdan oʻtkazish:** oʻlchash vositalarining xarakteristikalarini aniqlash va tasdiqlash maqsadida ularni tadqiq qilish.

**Oʻlchash vositalarini qiyoslash:** davlat metrologiya xizmatining organi tomonidan yoki boshqa vakolatli organlar (tashkilotlar) tomonidan

o'lchash vositalarini belgilangan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan amallar majmui.

**Birlimchi qiyoslash:** o'lchash vositalarini ishlab chiqarishdan chiqish paytida o'tkaziladigan qiyoslash.

**Keyingi qiyoslash:** o'lchash vositalarini birlamchi qiyoslashdan keyin o'tkaziladigan har qanday qiyoslash.

**Inspeksion qiyoslash:** o'lchash vositalarining qiyoslash tamg'asini amal qilish muddatini nazorat qilish uchun, shuningdek ko'rsatilgan o'lchash vositalari qiyoslash o'tkazilgandan keyin modernizatsiyalashga tortilgan-tortilmaganligini nazorat qilish va ularning xatoligi ekspluatatsiya jarayonida yo'l qo'yiladigan qiymatlardan oshmasligini nazorat qilish uchun o'tkaziladigan qiyoslash.

**O'lchash vositalari ustidan nazorat o'rnatish:** o'lchash vositalarini tayyorlash, o'rnatish, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish jarayonida bu protseduralar amaldagi hujjatlarga muvofiq amalga oshirilayotganligi, o'lchash vositalarining o'zlaridan esa to'g'ri foydalanilayotganligi va ularning qonunchilik talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat.

O'lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini aniqlashning maqsadi – o'lchashlarning birligini va talab qilinadigan aniqligini ta'minlashdan iborat.

O'lchash jarayonlarini boshqarish metrologik nazorat qilishning muhim maqsadi bo'lib hisoblanadi. Buning uchun o'lchash vositalariga bu mahsulotning hayotiy siklining barcha bosqichlarida – o'lchash vositalarini ishlab chiqarishga qo'yish, o'lchash vositalarini tayyorlash, ekspluatatsiyaga kiritish, ekspluatatsiya qilish va ekspluatatsiyadan chiqarishda ma'lum bir talablar qo'yiladi.

Bu talablarning bajarilishi o'lchash jarayonlarini kafolatlangan karakteristikalariga ega bo'lgan o'lchash vositalari yordamida o'tkazish, ekspluatatsiya qilish jarayonida xarakteristikalarining o'zgarishini kuzatib borish, va zarurat bo'lganda, ekspluatatsiya qilinayotgan o'lchash vositalarining xarakteristikalarini tekshirish davriyligini o'zgartirish yoki o'lchash vositalarining ba'zi bir nusxalarini ekspluatatsiyadan chiqarish va o'lchashlar jarayonida ularni boshqa vositalarga almashtirish yo'li bilan korrektilovkalash imkonini beradi.

Qonunlashtiruvchi metrologiyaning o'lchash vositalariga nisbatan qo'yadigan talablari ularning karakteristikalari va konstruksiyasining o'ziga xos xususiyatlari bilan emas, balki birinchi navbatda ushbu vositalarning vazifasi bo'yicha belgilanadi. Masalan o'lchash vositalarini

ekspluatatsiya qilish jarayonida majburiy talablar o'lchash vositalarining *faqatgina Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati qo'llaniladigan (DMTN, rus. GMKN) o'lchashlarni o'tkazish uchun ishlatiladigan nushalariga nisbatan* qo'yiladi.

O'lchash vositalarini ishlab chiqarishga qo'yishda, ishlab chiqarish jarayonida, import qilishda majburiy talablar *faqatgina ularni Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati qo'llaniladigan, ishlatilishi mumkin bo'lgan turlariga nisbatan* qo'yiladi.

Amaldagi qoidalarga ko'ra *Davlat metrologiya nazorati qo'llaniladigan o'lchashlarni o'tkazish uchun faqatgina o'lchash vositalarining Davlat Reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan o'lchash vositalarini qo'llashga yo'l qo'yiladi.*

Ro'yxatga olish sinovlarning natijalari va keyinchalik o'lchash vositalarining turini tasdiqlash bo'yicha yoki o'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan protseduralar o'lchash vositalarini *sertifikatlashtirish* protseduralari bo'lib hisoblanadi, biroq ular bir kelib chiqishli mahsulotning boshqa turlarini sertifikatlashtirishga qaraganda qattiqroq qoidalar bo'yicha o'tkaziladi.

*O'lchash vositalarining turini tasdiqlash* – O'zbekistonda metrologiya bo'yicha milliy organning Texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'lchash vositalarining turini mamlakat hududida qo'llash uchun qonunlashtirilgan deya tan olish to'g'risidagi qarori.

O'lchash vositalarining turini tasdiqlash turini tasdiqlash bo'yicha sinovlarning natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'lchash vositalarining turini tasdiqlash davlat metrologiya nazoratining turi bo'lib hisoblanadi va mamlakatda o'lchashlarning birligini ta'minlash, o'lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash, o'lchash vositalarini me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan talablarga mos ravishda ishlab chiqarishga va muomalaga qo'yish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sinovlar Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlangan komissiya tomonidan davlat metrologiya xizmatining akkreditatlangan bo'linmalarida yoki korxonalar va tashkilotlarning akkreditatlangan bo'linmalarida o'tkaziladi.

Sinovlarni tashkil qilish, o'tkazish va ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibi O'z DSt 8.009:2004 «O'DT. O'lchash

vositalarining turini tasdiqlash, tashkil qilish va o'tkazish tartibi» bilan o'rnatiladi.

Turini tasdiqlash sinovlariga *seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan yoki partiyalar bilan import qilinadigan, ularni Davlat metrologik nazorati doirasida qo'llash mumkin bo'lgan* o'lchash vositalari tortiladi.

Sinovlarga seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarining tajriba namunalari yoki import qilingan o'lchash vositalarining partiyadan tasodifiy tarzda tanlab olingan bir nechta nusxalari taqdim qilinadi.

Sinovlardan o'tkazish jarayonida o'lchash vositalarining ilmiy-texnik darajasi aniqlanadi, ta'sir ko'rsatuvchi kattaliklarning butun ishchi diapazonida barcha harakteristikalar aniqlanadi va qiyoslash uslubiyotini sinab ko'rish amalga oshiriladi.

Seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazishda shuningdek o'lchash vositalarining me'yorlangan parametrlarini Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan oldindan kelishilgan texnik topshiriqqa muvofiqligi ham aniqlanadi.

Sinovlar natijalari ijobiy bo'lganda o'lchash vositasining turi va uni qiyoslash uslubiyati tasdiqlanadi, turini davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi, o'lchash vositasiga *turining tasdiqlanganligi to'g'risidagi sertifikat* beriladi. Bunday sertifikat mazkur turdagi o'lchash vositalarini davlat metrologik nazorati doirasida qo'llash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarining turi tasdiqlangandan keyin tayyorlovchi korxonaga tajriba partiyasini chiqarishga ruxsat oladi. Bir paytning o'zida tayyorlovchi korxonaga o'lchash vositalarining bir qator nusxalari uchun ishonchlilik parametrlarini aniqlash va qiyoslashlar o'rtasidagi oldindan berilgan intervalni tasdiqlash maqsadida o'lchash vositalarini uzoq muddatli sinovlardan o'tkazadi.

So'ngra ishlab chiqarish va uning metrologik ta'minotini tekshiruvdan o'tkazish va RD Uz 51-022 bo'yicha *o'lchash vositalarining tasdiqlangan turga muvofiqligini sinovlardan o'tkazish amalga oshiriladi*. Bunday sinovlarga o'lchash vositalarining tajriba partiyasidan tanlab olingan nusxalari tortiladi.

Ko'rsatilgan sinovlarni Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tayyorlovchi korxonaga hududida joylashgan joydagi hududiy markazi

o'tkazadi. Sinovlarning natijalari ijobiy bo'lganda tayyorlovchi korxonaga seriyali ishlab chiqarishga ruxsatnoma (lisenziya) beriladi.

O'zbekistonda ishlab chiqariladigan turi tasdiqlangan o'lchash vositalari O'z DSt 1.19 bo'yicha o'lchash vositalarining Davlat Reyestrining belgisi bilan markirovkalanadi. Bu belgi shuningdek idishning etiketkasiga va o'lchash vositalarining hujjatlariga ham qo'yiladi.

O'lchash vositalarining turini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat va o'lchash vositalarini seriyali ishlab chiqarishga ruxsatnoma besh yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Sertifikatning amal qilish muddati tugagandan keyin seriyali ishlab chiqarish, zarurat bo'lganda, tasdiqlangan turga muvofiqlik bo'yicha sinovlar o'tkazilgandan keyin davom ettirilishi mumkin.

Partiyalar bilan import qilinadigan o'lchash vositalari uchun turni tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat ma'lum bir muddatga (5 yilgacha) yoki partiyadagi nusxalarning ma'lum bir soniga berilishi mumkin.

Tasdiqlangan turdagi o'lchash vositalarini keyinchalik import qilish faqatgina tasdiqlangan turga muvofiqlik bo'yicha sinovlarning natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda mumkin bo'ladi.

Import qilinadigan o'lchash vositalarining turini tan olish protsedurasini soddalashtirish va ularning bahosi o'lchash vositalarining narxida aks etadigan qo'shimcha sinovlarni o'tkazmaslik maqsadida bir necha hamkor mamlakatlarda o'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish qoidalari va protseduralarini o'rganib chiqish asosida ikki tomonlama *"O'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish, metrologik attestatlashdan o'tkazish va qiyoslash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi Kelishuv"* tuziladi.

Hozirgi kungacha O'zbekiston bilan bunday Kelishuvlarni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar (*Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Turkmanistondan tashqari*), Latviya, Litva, Turkiya davlatlari imzolagan.

Agar import qilinadigan o'lchash vositalari O'zbekiston bilan o'zaro Kelishuv imzolagan mamlakatning turni tasdiqlash to'g'risidagi sertifikatiga ega bo'lsa, qoidaga ko'ra, tipni tasdiqlash bo'yicha sinovlar *o'tkazilmaydi*.

Importer tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida o'lchash vositasi o'lchash vositalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat Reyestrda ro'yxatga olinadi va unga O'zbekiston Respublikasida o'lchash vositalarining tipini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat beriladi.

Shuni qayd qilish lozimki, ko'rsatilgan Kelishuv *uchinchi mamlakatlarga nisbatan amal qilmaydi*. Boshqacha qilib aytganda, Kelishuvda ishtirokchi davlatning metrologiya bo'yicha milliy organi tomonidan aynan shu mamlakatda ishlab chiqarilgan o'lchash vositalarining tipini tasdiqlash to'g'risida berilgan sertifikatlarini tan olinishi lozim.

O'lchash vositalarining yagona nusxalarini ekspluatatsiyaga kiritish ularni *metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalari* – o'lchash vositasining konkret nusxasining xarakteristikalarini har tomonlama tadqiq qilish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Metrologik attestatlashga yagona tartibda tayyorlangan, import qilingan o'lchash vositalarining yagona nusxalari, shuningdek ular uchun metrologik xarakteristikalar ilgari aniqlanmagan shart-sharoitlar yoki mo'jallanishlarda foydalaniladigan tasdiqlangan turdagi o'lchash vositalarining nusxalari tortiladi. Ko'rsatilgan o'lchash vositalari faqatgina ular Davlat Metrologiya nazorati doirasida o'lchashlarni o'tkazish uchun qo'llanilgan taqdirda metrologik attestatlashga tortiladi.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazishni tashkil qilish va uni o'tkazish tartibi RST Uz 8.011 bilan reglamentlangan.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish davlat metrologiya xizmati va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarining akkreditatlangan organlari tomonidan o'tkaziladi.

Metrologik attestatlashdan o'tkazishning natijalari ijobiy bo'lganda o'lchash vositasi O'zbekiston Respublikasining Davlat Reyestridan ro'yxatdan o'tkaziladi va unga *metrologik attestatlashdan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat* beriladi. Bunday sertifikat mazkur o'lchash vositasini Davlat Metrologiya Nazorati tarqaladigan sferada qo'llash uchun, biroq faqatgina mo'ljallanish bo'yicha va sertifikatga ilovada ko'rsatilgan shart-sharoitlarda qo'llash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Import qilingan o'lchash vositasining metrologik attestatlashdan o'tkazilganligi to'g'risidagi sertifikat bunday o'lchash vositalarini takroriy import qilish uchun *asos bo'lib hisoblanmaydi*.

O'lchash vositalarini sinovlardan va metrologik attestatlashdan o'tkazish huquqini akkreditatlashning talablari va tartibi O'z DSt 8.006 bilan o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasida o'lchash vositalarining Davlat Reyestri to'g'risidagi umumiy holatlar RD Uz 51 -019 da ko'rsatilgan.

Shuni qayd qilish lozimki, o'lchash vositalarining turini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikatlar va o'lchash vositalarining metrologik

attestatslashdan o'tkazilganligi to'g'risidagi sertifikatlar yakuniy hujjatlar bo'lib hisoblanadi, ular o'lchash vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududida Davlat Metrologiya Nazorati tarqaladigan sferada qo'llashning qonuniyligini o'rnatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida" gi qonuniga muvofiq texnik vositalar, jumladan ekspluatasiya qilish jarayonida oziq-ovqat mahsulotlari bilan bevosita kontaktga kirishishi mumkin bo'lgan o'lchash vositalari ham O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda majburiy gigiyenik sinovlarga tortiladi. Shu munosabat bilan ko'rsatilgan o'lchash vositalari turini tasdiqlash bo'yicha sinovlarga yoki metrologik attestatslashdan o'tkazishga faqatgina gigiyenik sertifikat bor bo'lgan taqdirdagina taqdim qilinadi.

Har qanday o'lchash vositasi kabi standart namunalarni ham faqatgina ular tasdiqlangandan (tan olingandan) keyin va o'lchash vositalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat Reyestriga kiritilgandan keyin (davlat standart namunalari uchun) yoki korxonaning standart namunalar reyestriga kiritilgandan keyin – bu mos keluvchi hujjat bilan tasdiqlanishi lozim - qo'llashga yo'l qo'yiladi.

Davlat standart namunalari uchun turini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat va unga ilova qilinadigan turning tasvirlanishi shunday hujjat bo'lib hisoblanadi. Standart namuna turining tasvirlanishida barcha harakteristikalar, jumladan standart namunaning metrologik harakteristikalari to'g'risidagi informatsiya keltiriladi.

Har bir standart namuna hamrohlik qiluvchi hujjatdan tashqari uni identifikatsiyalash imkonini beradigan mos keluvchi etiketka bilan ta'minlanishi lozim.

**Diqqat!**

1. Davlat metrologik nazorati doirasida faqatgina bu o'lchash vositalari qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi yoki qaysi mamlakatdan sotib olinganligidan qayt'iy nazar O'zstandart tomonidan tipni tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat yoki metrologik attestatslashdan o'tkazilganlik to'g'risidagi sertifikat berilgan o'lchash vositalarini qo'llashga yo'l qo'yiladi, bunday holat standart namunalarga ham tegishli bo'ladi.

2. O'z DSt 8.004 standarti talablariga mos kelmaydigan har qanday standart namunani O'zbekiston hududida qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

O'lchash vositalarini ekspluatasiya qilish jarayonida majburiy talablar faqatgina o'lchash vositalarining Davlat metrologik nazoratining doirasida

o'lchashlarni o'tkazish uchun qo'llaniladigan nushalariga nisbatan qo'yiladi.

Davlat metrologik nazorati doirasida o'lchashlarni o'tkazish uchun faqatgina o'lchash vositalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat Reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan o'lchash vositalarini qo'llashga yo'l qo'yiladi.

O'lchash vositalarini qo'llashning qonuniyligi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan o'lchash vositalarining turini tasdiqlash bo'yicha sinovlardan o'tkazish va o'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha aniqlanadi va tasdiqlanadi.

Turini tasdiqlash bo'yicha sinovlarga seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan yoki partiyalar bilan import qilinadigan o'lchash vositalari tortiladi.

O'lchash vositalarining yagona nushalarini ekspluatatsiyaga kiritish ularni metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Davlat metrologik nazorati doirasida faqatgina bu o'lchash vositalari qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi yoki qaysi mamlakatdan sotib olinganligidan qat'iy nazar O'zstandart tomonidan turini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat yoki metrologik attestatlashdan o'tkazilganlik to'g'risidagi sertifikat berilgan o'lchash vositalarini qo'llashga yo'l qo'yiladi, bunday holat standart namunalarga ham tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida" gi Qonunining 16-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining chegaralaridan tashqarida amalga oshirilgan o'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish va metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalarini tan olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Shartnomalarini hisobga olish bilan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

### **O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish.**

*O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish:* metrologiya xizmati tomonidan yolg'iz tartibda ishlab chiqarilgan (yoki yolg'iz nusxada xorijdan keltirilgan) o'lchash vositalarining ularning xususiyatlarini obdon tadqiq qilish asosida Davlat Metrologiya nazorati tarqaladigan sferada qo'llash uchun qonuniyligining tan olinishi.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish O'z DSt 8.007 bo'yicha o'lchash vositalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi.



O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish talablari va tartibi O'z DSt 8.011:2004 «O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish. Tashkil qilish va o'tkazish tartibi» bilan o'rnatiladi.

O'z DSt 8.011:2004 talablariga muvofiq quyidagi o'lchash vositalari metrologik attestatlashdan o'tkaziladi:

- yolg'iz tartibda ishlab chiqarilgan;
- yolg'iz tartibda xorijdan keltirilgan;
- tasdiqlangan tipdagi, mamlakatimizda yoki xorijda ishlab chiqarilgan, o'zining to'g'ridan-to'g'ri mo'ljallanishi bo'yicha qo'llanilmaydigan yoki tipni tasdiqlash uchun o'rnatilgan qo'llash shart-sharoitlardan farq qiladigan shart-sharoitlarda qo'llaniladigan;

- seriyali ishlab chiqarishning ularning texnik imkoniyatlari ular uchun tipni tasdiqlashda o'rnatilgan metrologik karakteristikalaridan farq qiladigan metrologik karakteristikalarni o'rnatish imkonini beradigan yolg'iz nusxalari;

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish paytida tayyorlangan o'lchash vositalari quyidagilar metrologik attestatlashdan o'tkazishning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi:

- o'lchash vositalarining amaldagi metrologik xarakteristikalarini aniqlash;

- o'lchash vositalarining texnik xarakteristikalarining xavfsizlik talablari, gigiyenik talablar va mos keluvchi sinovlardan o'tkazish davomida o'rnatilgan boshqa maxsus talablarga muvofiqligining to'liqligini baholash.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish bo'yicha ishlar manfaatdor tomonlar o'rtasida tuzilgan xo'jalik shartnomalari yoki kafolat xatlari asosida amalga oshiriladi, ularda ishni bajarish muddatlari va boshqa shartlar belgilab qo'yiladi.

Metrologik attestatlash metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturi asosida o'tkaziladi.

Metrologik attestatlashdan o'tgan o'lchash vositalari davriy qiyoslashga, zarurat bo'lganda esa navbatdan tashqari yoki inspeksion qiyoslashga tortiladi.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan RST Uz 8.001 bo'yicha davlat metrologiya xizmati organlari yoki O'z DSt 8.006 ga muvofiq o'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish huquqini akkreditatlagan yuridik shaxslar o'tkazadi.

Metrologik attestatlash quyidagi tartibda o'tkaziladi: attestatlash o'tkazilishidan manfaatdor bo'lgan yuridik (jismoniy) shaxs o'lchash vositalarini attestatlashdan o'tkazish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxsga talabnoma beradi.

Talabnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- talabnoma beruvchining (buyurtmachining) nomi va rekvizitlari;
- o'lchash vositalarini tayyorlovchining (importerning) nomi va rekvizitlari;
- o'lchash vositasining nomi va belgilanishi, uning zavoddan chiqqan nomeri;
- aniqlashga tortilishi lozim bo'lgan metrologik xarakteristikalar ro'yxati;
- o'lchash vositasining ularga muvofiqlik metrologik attestatlashdan

o'tkazilishi lozim bo'lgan metrologik xarakteristikalarining joiz bo'lgan qiymatlari yoki bu qiymatlarni o'z ichiga oladigan me'yoriy hujjatga havola;

- ekspluatatsiya qilish sharoitlari turini tasdiqlashda sharoitlardan farq qiladigan o'lchash vositalari uchun ekspluatatsiya qilish sharoitlari;
- talabnomaga ilova qilinadigan me'yoriy va texnik hujjatlarning ro'yxati;
- o'lchash vositalarini attestatlashdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni to'lash to'g'risida kafolat majburiyati.

O'lchash vositalarini attestatlashdan o'tkazishga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- o'lchash vositasini ishlab chiqishga texnik topshiriq yoki uning o'rnini bosadigan hujjat;
- GOST 2.601 bo'yicha texnik topshiriqda ko'zda tutilgan hajmda ekspluatatsion hujjatlar;
- metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturi;

Eslatma – o'lchash vositalarining metrologik xarakteristikalarini nazariy aniqlashda metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturini ishlab chiqmaslikka yo'l qo'yiladi.

- qiyoslash uslubiyotini reglamentlaydigan amaldagi me'yoriy hujjat, yoki qiyoslash uslubiyotining loyihasi;

Eslatma – qiyoslash uslubiyotining loyihasini ekspluatatsion hujjatlarning "Qiyoslash" bo'limida keltirishga yo'l qo'yiladi.

- agar bunday sinovlar texnik topshiriqda ko'zda tutilgan bo'lsa –

o'lchash vositasini ishlab chiquvchi (tayyorlovchi) tomonidan o'tkazilgan dastlabki sinovlarning bayonnomalari (protokollari);

- agar attestatlashdan o'tkaziladigan o'lchash vositalari uchun bunday talablar o'rnatilgan bo'lsa – xavfsizlik talablari, gigiyenik talablar va maxsus talablarga muvofiqlik sertifikatlari.

Import qilingan o'lchash vositalariga hujjatlar original tilda va davlat tiliga yoki rus tiliga tarjima qilingan holda taqdim qilinadi.

O'lchash vositasini metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- eksperimental tadqiqotlar va (yoki) nazariy hisoblashlarni o'tkazish tartibi va protsedurasi;

- zaruriy asbob-uskunalar, materiallar, namunaviy va ishchi o'lchash vositalarining, jumladan standart namunalarning ro'yxati;

- attestatlashni o'tkazish sharoitlari;

- tadqiqotlarning natijalarini hisoblash va ularga ishlov berish algoritmlari;

- attestatlash natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

O'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturi o'lchash vositalarini attestatlashdan o'tkazadigan tashkilotning (yuridik shaxsning) rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Qiyoslash uslubiyotining loyihasi RD Uz 51-029 talablariga mos kelishi lozim. Qiyoslash uslubiyotining loyihasi buyurtmachi tomonidan yoki uning topshirig'iga ko'ra bunday turdagi ishlarni bajarishga texnik jihatdan layoqatli bo'lgan har qanday yuridik (jismoniy) shaxs tomonidan ishlab chiqiladi.

O'lchash vositasini qiyoslash uslubiyotining loyihasi O'z DSt 1.6:2003 ga muvofiq metrologik ekspertizaga tortilishi lozim.

Attestatlashdan o'tkaziladigan o'lchash vositalarining metrologik xarakteristikalarini tadqiq qilish natijalari har bir harakteristika bo'yicha mos keluvchi bayonnomalar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. O'lchash vositalarini attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, unda quyidagilar keltiriladi:

- attestatlashdan o'tkazgan yuridik shaxsning nomi va rekvizitlari;

- o'lchash vositasining nomi va belgilanishi, uning zavodda berilgan nomeri;

- attestatlashdan o'tkazish muddatlari;

- attestatlashdan o'tkazish uchun asos;

- attestatlashni o'tkazish joyi;

- o‘lchash vositasining qisqacha texnik karakteristikalarini;
- taqdim qilingan hujjatlar ro‘yxati;
- attestatlash davomida olingan metrologik karakteristikalar;
- attestatlashdan o‘tkaziladigan o‘lchash vositasining metrologik xarakteristikalarining mos keluvchi me‘yoriy-texnik hujjatlar yoki buyurtmada o‘rnatilgan talablarga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa;
- attestatlash natijalari to‘g‘risida xulosalar.

Dalolatnoma attestatlashdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni ijro qiluvchilar tomonidan imzolani va attestatlashdan o‘tkazgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Qaysi o‘lchash vositalariga ekspluatatsiya qilish jarayonida majburiy davlat talablari qo‘yiladi?
2. Qaysi o‘lchash vositalari uchun sinovlar keyinchalik turini tasdiqlash bilan o‘tkaziladi?
3. Qaysi o‘lchash vositalari metrologik attestatlashga tortiladi?
4. Qaysi o‘lchash vositalari o‘lchash vositalarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat Reyestrining belgisi bilan markirovkalanadi?
5. O‘zbekistonda davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarda turini tasdiqlash to‘g‘risida boshqa davlatning metrologiya bo‘yicha organi tomonidan berilgan sertifikatga ega bo‘lgan o‘lchash vositalarini qo‘llash mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa – qanday hollarda?

## 9– AMALIY MASHG‘ULOT

### **Metrologik tekshiruv va nazorat qilishning qonunchilik asoslari**

**Ishning maqsadi:** *o‘lchash vositalari ustidan metrologik tekshiruv va nazorat sohasidagi me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish.*

**Metrologik tekshiruv** – vakolatli organlar yoki shaxslarning o‘lchash jarayoni elementlari xarakteristikalarining me‘yoriy hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bo‘yicha olib boradigan faoliyati.

**Metrologik nazorat** – vakolatli organlar yoki shaxslarning o‘lchash jarayoni elementlarining holati va qo‘llanilishi va o‘rnatilgan metrologik me‘yorlar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish bo‘yicha olib boradigan faoliyati.

Davlat metrologiya xizmati organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan metrologik tekshirish va nazorat qilish o‘lchashlarning birligiga erishish mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining asosiy holatlari O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risila” gi Qonuni bilan belgilangan va O‘z DSt 8.002:2009 «O‘z O‘DT. Metrologik tekshiruv va nazorat. Asosiy holatlar» bilan reglamentlangan.

18-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

19-moddaga muvofiq quyidagilar davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining obyektlari bo‘lib hisoblanadi:

- ✓ etalonlar;
  - ✓ o‘lchash vositalari;
  - ✓ sinovlardan o‘tkazish vositalari;
  - ✓ moddalar va materiallarning tarkibi va xususiyatlarining standart namunalari;
  - ✓ informatsion-o‘lchash tizimlari;
  - ✓ o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari;
- metrologik me‘yorlar va qoidalarda ko‘zda tutilgan boshqa obyektlar.

*Davlat metrologiya nazorati* – vakolatli organlar yoki shaxslarning o‘rnatilgan metrologik me‘yorlar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish bo‘yicha olib boradigan faoliyatidir.

Davlat metrologiya nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning, shuningdek boshqa qonun hujjatlarining metrologiyaga oid talablarga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazorati:

o‘lchash vositalarining (shu jumladan etalonlar, standart namunalari, axborot-o‘lchash tizimlari) ishlab chiqarilishi, ta‘mirlanishi, prokatga berilishi, realizasiya qilinishi, ularning holati va qo‘llanilishi;

o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarining qo‘llanilishi;

belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi, shuningdek akkreditasiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari va laboratoriyalari faoliyati;

o‘ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog‘idagi miqdori ustidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazoratini amalga oshiruvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi qonun hujjatlarida belgilanadi.

O‘zbekistonda 1992 yilgacha amal qilgan qoidalardan farqli o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi Qonuni qonunlashtiruvchi metrologiyaning talablari majburiy kuchga ega bo‘lgan sohani – *davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tarqaladigan sohani* qat’iy chegaralab beradi. Bu sfera prinsipial jihatdan noishlab chiqarish faoliyati sohasiga siljirilgan va sog‘liqni saqlash, savdo-sotiq, moddiy resurslarni hisobga olish, mehnat xavfsizligi, mahsulotlarning xavfsizligi, transport harakati xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarini o‘z ichiga oladi.

*Shunday qilib, o‘lchash jarayonlari va ularning elementlariga nisbatan majburiy davlat talablari o‘lchash jarayonining o‘zining yoki uning elementlarining turi yoki karakteristikalariga bog‘liq ravishda emas, balki bu jarayonlarning mo‘ljallanishiga bog‘liq ravishda o‘rnatiladi.*

*Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tarqaladigan sferadan tashqarida, masalan, mahsulotni ishlab chiqarishda, o‘tkaziladigan o‘lchash jarayonlariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni o‘lchash jarayonidan foydalanuvchi o‘rnatadi* va bu talablarga rioya qilinishini tekshirish korxonasi (tashkilot) tomonidan amalga oshiriladigan metrologiya tekshiruvi va nazoratining obyektini bo‘lib hisoblanadi. *Bunday holda O‘z DO‘T hujjatlarining talablari tavsiyaviy bo‘lib hisoblanadi.*

Hozirgi kunda iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichida O'zbekistonda davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining tarqalish sferasi rivojlangan mamlakatlardagiga qaraganda albatta anchagina keng va xorijiy sheriklar bilan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda buni albatta hisobga olish lozim bo'ladi.

Biroq bu sfera 1992 yilgacha amal qilganiga nisbatan taqqoslab bo'lmaydigan darajada tor. "Metrologiya to'g'risida" gi Qonunda bunga urg'u berilishi tadbirkorlarning tashabbuslarining rivojlanishi va mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishiga ko'maklashadi.

*Xalqaro metrologiya amaliyotining tajribasidan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan tartibga solinmaydigan sferada o'tkaziladigan o'lchash jarayonlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni shakllantirishda o'rnatilgan metrologik me'yorlar va qoidalarga qat'iy amal qilish tavsiya qilinadi, chunki faqat ulargina shafqasiz bozor sharoitlarida mahsulotlarning talab qilinadigan sifati va raqobatbardoshligiga erishishga ko'maklashadi.*

O'lchash jarayonining quyidagi barcha elementlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining obyektlari bo'lib hisoblanadi:

- kattaliklarning birligi;
- o'lchash vositalari va uslubiyotlari;
- xodimlar.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini davlat metrologiya xizmatining vakolatli organlari amalga oshiradi.

O'zbekistonda qonunlashtiruvchi metrologiyaning talablari majburiy kuchga ega bo'lgan soha – davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tarqaladigan soha qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati doirasidan tashqarida, masalan, mahsulotni ishlab chiqarishda, o'tkaziladigan o'lchash jarayonlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'lchash jarayonidan foydalanuvchi o'rnatadi.

Metrologik **tekshiruv** quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- o'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish va turini tasdiqlash;
- o'lchash vositalarini metrologik attestatlashdan o'tkazish;
- sinovlardan o'tkazish vositalarini attestatlashdan o'tkazish;
- o'lchash vositalarini qiyoslash;
- o'lchash vositalarini kalibrlash;
- o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatlashdan o'tkazish va ularning bajarilish sifatini baholash;

- me'yoriy-texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish;
- metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarning o'lchash vositalari, sinovlardan o'tkazish vositalari va o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini sinovlardan o'tkazish, qiyoslash, metrologik attestatlashdan o'tkazish huquqini, o'lchash vositalari va sinovlardan o'tkazish vositalarini kalibrlash huquqini va metrologik faoliyatning boshqa turlarini bu ishlarni bajarishning metrologik ta'minotini baholash maqsadida akkreditatlashda ishtirok etish;
- o'lchash vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, sotish va ijaraga berish faoliyatini ro'yxatga olish;
- metrologiya tekshiruvi va nazoratining ma'lum bir turlarini amalga oshiradigan xodimlarni attestatlashdan o'tkazish.

### **Metrologik nazorat**

Metrologik nazorat uning davlat metrologiya xizmati tomonidan amalga oshirilishida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'lchash vositalarini ishlab chiqarish, ularning holati va qo'llanilishi, attestatlashdan o'tkazilgan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari, o'lchashlarning birligini ta'minlash, metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;
- inspeksion tekshiruvdan o'tkazishda akkreditatlangan metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalar tomonidan metrologik faoliyatning konkret turlarining bajarilishida metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish;
- savdo-sotiq operasiyalarini amalga oshirishda sotiladigan tovarning miqdori ustidan nazorat qilish;
- har qanday turdagi upakovkalarda qadoqlangan tovarning miqdori ustidan nazorat qilish.

Zarur bo'lgan hollarda «TJTS» agentligining qaroriga ko'ra davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohalarda metrologik tekshiruv va nazoratning boshqa turlari va formalari ham o'rnatilishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Metrologiya tekshiruvi va nazoratining asosiy obyektlarini sanab bering.
2. Sizing fikringizcha, o'lchashlarning birligini ta'minlash sohasida majburiy davlat talablarining qo'llanilish doirasiga chegaralashlar bormi?



3. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tarqaladigan sferadan tashqarida o'tkaziladigan o'lchash jarayonlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni qaysi tashkilot o'rnatadi?

4. O'lchash jarayonlariga nisbatan majburiy davlat talablari tarqaladigan doira qaysi hujjat bilan belgilangan?

## 10– AMALIY MASHG'ULOT

### O'lchashlarni bajarish uslubiyotini ishlab chiqish va attestatlashdan o'tkazish tartibi

**Ishning maqsadi:** *o'lchashlarni bajarish uslubiyotini ishlab chiqish va attestatlashdan o'tkazishning asosiy holatlarini o'rganish.*

Har qanday o'zgarishni amalda qandaydir bir qoidalar va protseduralarning jamlanmasi sifatida tasvirlash mumkin, ularning bajarilishi o'lchashning natijasini ma'lum bir xatolik bilan olish imkonini beradi. Bunda o'lchashlarning turi va (yoki) obyektiga bog'liq ravishda o'lchash protseduralari o'ta murakkab harakter kasb etishi mumkin, ularni bajarish esa faqatgina bir qator shartlarga amal qilishni talab qilib qolmasdan, balki yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni ham talab qiladi.

Bunday o'lchashlar jarayonida ularning natijalarining talab qilinadigan aniqligiga erishish uchun operator o'lchashning barcha ahamiyatga molik bo'lgan xatoliklarining tarkib toptiruvchilarini, jumladan uslub xatoligi, qo'llanilgan o'lchash vositalarining xatoliklari, operatorning o'zining xatolari va hokazolarni faqatgina hisobga olib qolmasdan, balki imkon qadar ularni bartaraf qilishi va turli-tuman omillarning o'lchashlar obyektiga ta'sirini minimallashtirish choralari ko'rishi va olingan tajriba ma'lumotlariga mos keluvchi matematik ishlov berishni bilishi lozim.

Murakkab, ko'p omilli o'lchashlarni bir qiymatli tarzda o'tkazish uchun ko'pincha bunday o'lchashlarni bajarish qoidalari va protseduralarining butun jamlanmasini maxsus yo'riqnoma – *o'lchashlarni bajarish uslubiyoti* (rus. MVI) bilan aniq reglamentlash zarurati vujudga keladi.

Bunday uslubiyotlarning qo'llanilishi, ular mos keluvchi malakaga ega bo'lgan har xil odamlar tomonidan har xil vaqtda va asbob-uskunalarining har xil jamlanmalarida bajarilganda, ularning qayta yaraluvchanligini va takrorlanuvchanligini ta'minlash imkonini beradi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyoti, qoidaga ko'ra, ularning xatoligi faqatgina qo'llanilgan o'lchash vositalarining xatoligi bilan belgilanib qolmaydigan o'lchashlarni bajarish paytida zarur bo'ladi.

Amalda o'lchashlarni bajarish uslubiyotini aksariyat bilvosita o'lchashlar uchun tuzish lozim bo'ladi. O'lchashlarni bajarish uslubiyotining roli moddalar va materiallarning tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan o'lchashlarda ayniqsa muhim bo'ladi.

O'lchashlar sohasida o'lchashlarni bajarish uslubiyoti hozirgi kunda ba'zan asosiy instrument bo'lib hisoblanadi.

O'lchashlarning har qanday sohasi o'zining fizikaviy kattaliklarning fizikaviy tabiati, foydalaniladigan o'lchash vositalarining va eksperimental protseduralarning o'ziga xos xususiyatlari bilan shartlanadigan spesifikatsiga ega bo'ladi.

Quyidagilar moddalarning tarkibini aniqlashning spesifik o'ziga xos xususiyatlari bo'lib hisoblanadi:

a) o'lchanadigan kattalikka yetib borishning o'ta murakkabligi, masalan, tahlil qilinadigan moddada odatda boshqa elementlar bilan kimyoviy bog'lanishda bo'lgan holda mavjud bo'lgan qandaydir bir tarkibiy qismning massasini aniqlashda shunday bo'ladi.

Shu sababli aniqlanadigan tarkibiy qismning massasini, massalar nisbatini, massa ulushini o'lchashdan oldin aksariyat hollarda bu tarkibiy qismni moddalar matritsasi bilan bog'lanishlardan xalos qilish uchun murakkab kimyoviy-analitik protseduralarni bajarish zarur bo'ladi, aks holda kattagina xatoliklarning to'planishi sodir bo'lishi mumkin. Bu murakkablik ularda tarkibiy qismlar aniqlanadigan moddalarning o'ta turli-tumanligi va aniqlanadigan elementlarning kimyoviy bog'lanishlarining mumkin bo'lgan variantlarining ko'pligi bilan yanayam chuqurlashadi;

b) moddaning tarkibini harakterlaydigan kattaliklarning birliklarini qayta yaratish uchun etalonlarning, ularning o'lchamlarini uzatishni reglamentlaydigan qiyoslash sxemalarining yo'qligi;

d) kimyoviy-analitik o'lchash uslubiyotlarining o'ta turli-tumanligi, ularda operatoridan yuqori malakani talab qiladigan va olinadigan natijalarning to'g'riligi ularga sezilarli darajada bog'liq bo'lgan analitik protseduralar va o'lchash protseduralari jipslashib ketgan bo'ladi.

e) doimiy shkalalarga ega bo'lmagan va individual graduirovkalashga muhtoj bo'lgan, vaqtda yetarlicha turg'unlikka ega bo'lmagan ko'p funksional mo'ljallanishdagi spesifik priborlar – xromatograflar, spektrometrlar, kvantometrlar va boshqa analizatorlardan foydalanish.

Bunday holat priborlarni standart namunalari yoki nazorat tajribalari bo'yicha davriy ravishda graduirovkalashni talab qiladi.

U yoki bu sohada o'lchashlarning birligini ta'minlashning oxirgi maqsadi o'lchashlar natijalarining to'g'riligiga erishishga keltiriladi, bu ayniqsa birinchi navbatda texnologik jarayonlarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'ta turli-tuman va ko'p sonli texnik o'lchashlar kategoriyasiga taalluqli bo'ladi. Bunday o'lchashlarning natijalaridan mahsulotning sifatini baholash, moddiy resurslarni hisobga olish va hokazolarda bevosita foydalaniladi.

Moddalar va materiallarning tarkibi va xususiyatlarini aniqlashda o'lchashlarning aniqligiga nisbatan qo'yiladigan talablar xomashyo va materiallar resurslaridan yanada to'laroq foydalanish talablari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish zarurati, moddiy resurslar va yoqilg'i-energetika resurslarini tejash zarurati bilan shartlanadi.

O'lchashlarning kattagina hajmi tabiiy muhitni kuzatish va muhofaza qilish tizimida, jumladan tuproqning degradatsiyalanishini (yemirilishini) baholash, suv resurslarini tahlil qilish, biosferaning holati, iqlim, odamlarning salomatligi va hokazolarni tahlil qilish, turmush faoliyatining boshqa muhim jabhalarini tahlil qilish sohalarida o'tkaziladi.

Moddalarning tarkibini o'lchash o'lchashlar informatsiyasini qayta shakllantirishni talab qiladigan kimyoviy va fizikaviy uslublarni qo'llash bilan o'tkaziladi, bu o'lchashlarning xatoligini tahlil qilishni va o'lchashlarning birligini ta'minlashni anchagina qiyinlashtirib qo'yadi. Bunday holda o'lchashlar natijasining kafolatlangan xatoligini ta'minlaydigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotining bo'lishi zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

**O'lchashlarni bajarish uslubiyoti** – ularning bajarilishi o'lchashlarning natijalarining ma'lum bir aniqlik bilan olinishini ta'minlaydigan operatsiyalar va qoidalar jamlanmasidir.

Qoidaga ko'ra, o'lchashlarni bajarish uslubiyoti ularning bajarilishi o'lchashlarning natijalarining belgilangan xatolik bilan olinishini ta'minlaydigan operatsiyalar va qoidalar jamlanmasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'rnatadigan hujjat ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotining hujjati nomlanish, qo'llanilish sohasi va bo'limlarni o'z ichiga oladi, ularda quyidagilar ifodalanadi:

- o'lchashlar xatoligiga nisbatan qo'yiladigan talablar yoki o'lchashlar xatoligining belgilangan karakteristikalar;

- o'lchashlarni bajarish uslubiyotini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan o'lchash vositalari, yordamchi uskunalar, materiallar, eritmalar, kimyoviy reaktivlar va hokazolarning ro'yxati;

- o'lchashlarni bajarish uslubiyoti, unga (ularga) asoslangan o'lchash uslubi (uslublari);

- xavfsizlik talablari, atrof-muhitni muhofaza qilish talablari;

- operatorlarning malakasiga nisbatan qo'yiladigan talablar;

- o'lchash sharoitlari;

- o'lchashlarni bajarishga tayyorgarlik protseduralari va operatsiyalari;

- o'lchashlarni bajarish protseduralari va operatsiyalari;

- o'lchashlarning natijalariga ishlov berish (hisoblash) tartibi va algoritmlari;

- o'lchashlar natijalarining aniqligini operativ nazorat qilish protseduralarining tartibi va tasvirlanishi;

- o'lchashlarning natijalarini rasmiylashtirish qoidalari.

O'lchashlarni bajarish uslubiyoti o'lchashlarni bajarish instrumenti bo'lib hisoblanishi sababli, u ham xuddi o'lchash vositalari kabi metrologik karakteristikalar jamlanmasiga ega bo'ladi.

Quyidagilar o'lchashlarni bajarish uslubiyotining hal qiluvchi karakteristikalar bo'lib hisoblanadi:

- qo'llanilish sohasi, o'lchashlar diapazonini o'z ichiga olgan holda;

- ta'sir ko'rsatuvchi omillarning chegaralanish parametrlari;

- umumiy ko'rinishda xatolikning tizimli va tasodifiy tarkib toptiruvchilaridan tashkil topadigan o'lchashlar xatoligi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyoti mustaqil hujjat ko'rinishida rasmiylashtirilishi yoki tarkibiy qism sifatida boshqa hujjatga (standart, texnik shartlar, sinovlardan o'tkazish uslubiyoti va boshqalar) kiritilishi mumkin.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotiga nisbatan qo'yiladigan talablar, ularni ishlab chiqish, tadqiq qilish va tasdiqlash tartibi O'z DSt 8.016 «O'DT. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari.

Asosiy holatlar» bilan o'rnatiladi. O'lchashlarni bajarish uslubiyotining mazmuni, ifodalanishi va ularni attestatlashdan o'tkazish bo'yicha tavsiyalar O'zT 51-088:1999 «O'DT. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari. Tuzilishi, mazmuni, ifodalanishi va rasmiylashtirilishi» da berilgan.

## **O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish**

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish bo'yicha asosiy holatlar O'z DSt 8.016 «O'DT. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari. Asosiy holatlar» bilan o'rnatiladi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarida foydalaniladigan o'lchash vositalari, standart namunalari ularning qo'llanilish sohasiga bog'liq ravishda tanlanadi.

Eslatma: – Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo'llaniladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarida O'z DSt 8.009 bo'yicha turi tasdiqlangan yoki O'z DSt 8.011 ga muvofiq attestatlashdan o'tkazilgan o'lchash vositalari, O'z DSt 8.004 bo'yicha attestatlashdan o'tkazilgan standart namunalardan foydalanilishi lozim. Attestatlashdan o'tkazilgan aralashmalar qo'llanilgan taqdirda esa, ular MI 2334 ning talablariga mos kelishi lozim.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo'llaniladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari quyidagilarga tortiladi:

- davlat metrologiya xizmati organlari yoki akkreditatlangan yuridik (jismoniy) shaxslar tomonidan attestatlashga;
- O'z RH 51-106 ga muvofiq metrologik ekspertizaga;
- «O'zstandart» Agentligi tomonidan tasdiqlashga;
- O'z RH 51-089 ga muvofiq Davlat Reyestriga kiritish va ro'yxatga olishga;
- Davlat tekshiruvi va nazoratiga.

Ularning natijalaridan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida foydalaniladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari majburiy metrologik attestatlashga tortiladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasidan tashqarida foydalaniladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarining hujjatlari o'lchashlarni bajarish uslubiyotlaridan foydalanadigan idora yoki korxonalar tomonidan o'rnatilgan, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan tartibda metrologik ekspertizaga tortiladi.

## **O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o'tkazish**

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o'tkazishga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar GOST 8.010 bo'yicha o'rnatiladi. Metrologik attestatlashga quyidagilar tortiladi:

- yangidan ishlab chiqiladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari;
- qayta ko'rib chiqiladigan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari;

*Eslatma* – o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini qayta ko‘rib chiqish deganda ularning o‘zining izidan ularning metrologik xarakteristikalarining o‘zgarishini ergashtiradigan har qanday o‘zgarishlari tushuniladi;

- yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqiladigan, o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarga yoki mahsulotlar va xizmatlarni standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarning umumiy bo‘limlariga kiritiladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari;

- o‘rnatilmagan aniqlik ko‘rsatkichlari bilan ilgari standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarga kiritilgan yoki foydalaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo‘llaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazish mazkur standart tomonidan o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo‘llaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazishni quyidagilar amalga oshiradi:

- davlat metrologiya xizmati organlari;

- O‘z DSt 16.5:2001 «O‘zbekiston Respublikasining akkreditatsiya tizimi. Yuridik va jismoniy shaxslarning o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazish va hujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tkazish huquqiga akkreditatsiya. O‘tkazishni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi» ga muvofiq o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazish huquqiga akkreditatsiya qilingan yuridik (jismoniy) shaxslar.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasidan tashqarida foydalaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazishni quyidagilar amalga oshiradi:

- davlat metrologiya xizmatining organlari;

- o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqadigan yoki qo‘llaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari.

Yuridik (jismoniy) shaxs yoki uning metrologiya xizmati boshqa yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan yoki qo‘llaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazishni amalga oshirsa, ular o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish huquqini akkreditatsiya qilingan bo‘lishlari lozim.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatlashdan o'tkazish O'z DSt 8.009 bo'yicha turi tasdiqlangan yoki O'z DSt 8.011 ga muvofiq attestatlashdan o'tkazilgan, O'z DSt 8.003 bo'yicha qiyoslashdan o'tkazilgan o'lchash vositalari yordamida bajariladi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o'tkazishda foydalaniladigan standart namunalar O'z DSt 8.004 talablariga mos kelishi lozim.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari bo'yicha bajariladigan o'lchashlarning aniqlik ko'rsatkichlarini o'rnatish uchun zarur bo'ladigan standart namunalar bo'lmagan taqdirda mos keluvchi me'yoriy hujjatlar bo'yicha seriyali ravishda ishlab chiqariladigan yoki o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o'tkazish paytida tayyorlanadigan, attestatlashdan o'tkazilgan aralashmalardan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Attestatlashdan o'tkazilgan aralashmalarga nisbatan qo'yiladigan talablar o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturida keltirilgan bo'lishi lozim.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatlashdan o'tkazish ularning xatoliklar xarakteristikalarini aniqlash bo'yicha nazariy va (yoki) eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Attestatlashni amaldagi o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini nazorat qilishning arxiv ma'lumotlari asosida yoki o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish davomida olingan natijalar asosida o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini qonunlashtirish bo'yicha ishlarning butun majmuasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- yangidan ishlab chiqilgan o'lchashlarni bajarish uslubiyoti hujjatining loyihasini yoki amaldagi (qayta ko'rib chiqiladigan) o'lchashlarni bajarish uslubiyotining hujjatini metrologik attestatlashdan o'tkazish;

- o'lchashlarni bajarish uslubiyotini metrologik attestatlashdan o'tkazish dasturini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash;

- nazariy va (yoki) eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish;

- o'lchashlarni bajarish uslubiyotini attestatlashdan o'tkazish to'g'risidagi hisobotni, hujjatning o'lchashlarni bajarish uslubiyotini reglamentlaydigan yakuniy tahririni va attestatlashdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatning loyihasini rasmiylashtirish;

- attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish;

- o‘lchashlarni bajarish uslubiyotini tasdiqlash va ro‘yxatga olish.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyoti hujjatining loyihasini metrologik ekspertizadan o‘tkazish uning amaldagi me‘yorlar va qoidalarga muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturi, qoidaga ko‘ra, o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarini attestatlashdan o‘tkazishni amalga oshiradigan yuridik shaxs tomonidan ishlab chiqiladi.

*Metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:*

- eksperimental tadqiqotlar va (yoki) nazariy hisoblashlarni o‘tkazish tartibi va protseduralari;

- zaruriy asbob-uskunalar, materiallar va reaktivlar, o‘lchash vositalari, jumladan standart namunalari va attestatlashdan o‘tkazilgan aralashmalarning ro‘yxati; agar attestatlash ishlab chiqarish namunalari o‘tkazilsa – namunalarni attestatlashdan o‘tkazishga nisbatan qo‘yiladigan talablar;

- attestatlashni o‘tkazish sharoitlari;

- tadqiqotlar natijalarini hisoblash va ularga ishlov berish algoritmlari;

- attestatlash natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyati hujjatining loyihasi eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish tartibining tarkibiy qismi sifatida metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturiga majburiy ilova bo‘lib hisoblanadi.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyoti bo‘yicha o‘lchashlarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan va o‘lchashlarni bajarish uslubiyoti hujjatining loyihasida keltirilgan o‘lchash vositalari, asbob-uskunalar, materiallar va reaktivlarning ro‘yxatini metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturiga kiritmaslikka yo‘l qo‘yiladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo‘llash uchun mo‘ljallangan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotini metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturi O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati Bosh Markazi sifatida Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan bo‘lishi lozim.

Metrologik attestatlashdan o‘tkazish dasturi o‘lchashlarni bajarish uslubiyotini attestatsiyadan o‘tkazadigan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar O‘z DSt 16.4 ga muvofiq akkreditlangan laboratoriyalarda o‘tkaziladi.



O'lchashlarni bajarish uslubiyotini metrologik attestatlashdan o'tkazish natijalari bo'yicha mos keluvchi hisobot tuziladi va o'lchashlarni bajarish uslubiyoti hujjatining yakuniy tahririning loyihasi rasmiylashtiriladi.

Hisobot o'lchashlarni bajarish uslubiyotini bevosita attestatlashdan o'tkazgan shaxslar tomonidan imzolanadi va uni o'tkazgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyoti hujjatining yakuniy tahririning loyihasi o'lchashlarni bajarish uslubiyotini bevosita ishlab chiqqan va (yoki) attestatlashdan o'tkazgan shaxslar tomonidan imzolanadi va o'lchashlarni bajarish uslubiyotini ishlab chiqqan va (yoki) attestatlashdan o'tkazgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi 528-son qaroriga muvofiq o'lchash vositalarini metrologik attestasiyadan o'tkazish o'lchash vositalarini, shu jumladan, modda va materiallarning tarkibi va xossalari standart namunalari (keyingi o'rinlarda standart namuna deb ataladi) metrologik attestasiyadan o'tkazish va o'lchash vositalarining tasdiqlangan turlarini O'zbekiston Respublikasi o'lchash vositalari davlat reyestriga (keyingi o'rinlarda reyestr deb ataladi) kiritish tartibini belgilaydi.

Ushbu Qoidalar talablari o'lchash vositalarini davlat metrologik tekshiruv va nazorati sohasida qo'llaydigan barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

**Metrologik attestatsiya dasturi** — o'lchash vositalarini, shu jumladan, standart namunalarni attestasiyadan o'tkazish bo'yicha ishlar hajmini, turi va ketma-ketligini, hisobot ma'lumotlarini taqdim qilish shaklini belgilaydigan hujjat;



**Ўлчаш воситаларини метрологик аттестациядан ўтказиш учун  
АРИЗА**

Ариза берувчи  
(унинг вакили)

\_\_\_\_\_ (Ф.И.О. ёки номи, манзили, телефон раками)

Сиздан \_\_\_\_\_

(Ўлчаш воситаларини ишлаб чиққан мамлакат номи

\_\_\_\_\_ ишлаб чиқилган,

ва ўлчаш воситаларини тайёрловчининг номи)

қуйидаги шароитларда қўлланадиган \_\_\_\_\_

(харорат, намлик, атмосфера босими ва шу кабилар)

\_\_\_\_\_ (Ўлчаш воситаларининг номи, тури, идентификацион (завод) раками,

\_\_\_\_\_ белгиланган масади ва мумкин бўлган қўлланиш доираси)

\_\_\_\_\_ (аниқланиши лозим бўлган метрологик тавсифлари)

\_\_\_\_\_ метрологик тавсифларини аниқлашингизни ва уларнинг

\_\_\_\_\_ (техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги ҳужжатларда ёки ўлчаш воситаларининг

\_\_\_\_\_ фойдаланиш ҳужжатларида белгиланган метрологик тавсифларининг

\_\_\_\_\_ талабларига мувофиқлигини белгилашингизни сўрайди.

\_\_\_\_\_ қийматлари

\_\_\_\_\_ ёки ўлчаш воситаларини эксплуатация ҳужжатлари)

**Аризага илова қилинадиган ҳужжатлар ва маълумотлар рўйхати:**

Ариза берувчи \_\_\_\_\_

(номи, аризанинг банк реквизитлари)

Ўлчаш воситаларининг метрологик аттестациядан ўтказиш натижалари қандай бўлишидан қатъи назар барча харажатлар учун ҳақ тўлаш мажбуриятини олади.

Ариза билан бирга ўлчаш воситаларининг \_\_\_\_\_ та намуналари (нусхалари) ва қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилади:

Ариза берувчи

(унинг вакили)

\_\_\_\_\_ (имзо)

\_\_\_\_\_ (Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_ (сана)

*Sinovlardan o'tkazish yoki qiyoslash laboratoriyasini akkreditatlash* - laboratoriyani akkreditatlashning ma'lum bir sohasida o'lchash vositalarini qiyoslash, metrologik attestatlash, konkret sinovlarni o'tkazish yoki o'lchash vositalarining konkret turlarini sinovlardan o'tkazishni amalga oshirish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan olinishidir.

***Akkreditatlash quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:***

- o'lchashlarning birligini ta'minlash;

- sinovlardan o'tkazish va qiyoslash laboratoriyalarini akkreditatlash bo'yicha qoidalar va protseduralarni xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va boshqa davlatlarning akkreditatlash bo'yicha milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirish;



- o'lchash vositalarini qiyoslash, metrologik attestatlash va sinovlardan o'tkazish natijalarining o'zaro tan olinishi uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati qo'llaniladigan sohalarda o'lchash vositalarini qiyoslash, metrologik attestatlash va sinovlardan o'tkazishni amalga oshiradigan yoki shu faoliyatni olib borishga da'vogar bo'lgan tashkilotlarni akkreditatlashni akkreditatlash bo'yicha milliy idora – Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tashkil qiladi va amalga oshiradi.

«O'zstandart» akkreditatlovchi idora sifatida:

- sinovlardan o'tkazish va qiyoslash laboratoriyalarini akkreditatlash bo'yicha qoidalar va protseduralarni o'rnatadi;

- akkreditatlash obyektlariga nisbatan talablarni o'rnatadi;

- mos keluvchi obyektlarni akkreditatlaydi va ularga akkreditatlashning ma'lum bir sohasi bo'yicha akkreditatlashdan o'tganlik to'g'risidagi attestatlarni beradi;

- akkreditatlash masalalari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadi;

- sinovlardan o'tkazish va qiyoslash laboratoriyalarining akkreditatlash bo'yicha ekspertlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydi, ularni maxsus tayyorlashni (o'qitishni) tashkil qiladi va ularni sertifikatlashtirish va attestatlashdan o'tkazish tartibini tasdiqlaydi;

- akkreditatlangan obyektlarni hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi;

- akkreditatlangan obyektlar to'g'risidagi informatsiyani chop qiladi.

Sinovlardan o'tkazish va qiyoslash laboratoriyalarini akkreditatlash bo'yicha idora yetarlicha xodimlar (ekspertlar) soniga ega bo'lishi lozim. Ular zaruriy ma'lumotga, tayyorgarlikka, o'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish, attestatlashdan o'tkazish va qiyoslash bo'yicha texnik bilimlar va ish tajribasiga ega bo'lishi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan o'rnatilgan tartibda sertifikatlashtirilgan va attestatlangan bo'lishi lozim.

Tashkilotni (akkreditatlash obyektini) akkreditatlash faqatgina konkret ishlarning turlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Shu munosabat bilan akkreditatlash sohasini belgilaydigan hujjatda quyidagilar aniq ko'rsatiladi:

- sinovlardan o'tkazish laboratoriyasi uchun – sinovlarning turi yoki sinovdan o'tkaziladigan, tadqiq qilinadigan o'lchash vositalarining turi;

- qiyoslash laboratoriyalari uchun – o‘lchash turi, qiyoslanadigan yoki attestatlangan o‘lchash vositalarining nomenklaturasi, zarurat bo‘lganda – o‘lchashlar diapazoni va xatoligi.

*Obyektlarni akkreditatsiyalar tartibi*

O‘lchash vositalarini sinovlardan o‘tkazish, metrologik attestatsiyadan o‘tkazish va qiyoslash bo‘yicha obyektlarni akkreditatsiyalar quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- sinovlardan o‘tkazish yoki qiyoslash laboratoriyasini akkreditatsiyalar tayyorlash;

- akkreditatsiyalar laboratoriyani attestatsiyadan o‘tkazish (baholash);

- attestatsiyalar taalluqli bo‘lgan materiallarni tahlil qilish;

- akkreditatsiyalar taqdim qilish, akkreditatsiyalar sohasini belgilash yoki akkreditatsiyalar rad qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- akkreditatsiyalarlik to‘g‘risidagi hujjatni berish.

Akkreditatsiyalaruvchi obyektning rahbari Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga rasmiy talabnoma yo‘llaydi, unda:

- akkreditatsiyalar sohasini ko‘rsatadi;

- o‘zining akkreditatsiyalar masalalaridan xabardor ekanligini bildiradi;

- akkreditatsiyalar protsedurasini bajarishga, akkreditatsiyalarlaydigan mutaxassislar (ekspertlar) guruhini qabul qilishga, akkreditatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni attestatsiyalar natijalaridan qat‘iy nazar to‘lashga, shuningdek akkreditatsiyalar laboratoriyani keyinchalik nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni o‘ziga olishga rozilik beradi.

***Talabnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:***

- laboratoriya nizomining nusxasi;

- laboratoriyaning pasporti;

- sifat bo‘yicha qo‘llanma.

Yuridik shaxsning metrologik xizmatining o‘lchash vositalarini qiyoslash va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish huquqini akkreditatsiyalar qo‘shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim qilinadi:

- metrologik xizmatning o‘lchash vositalarini qiyoslash va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish huquqini akkreditatsiyalarning maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash;

- yuridik shaxs joylashgan joyidagi Davlat metrologiya xizmati idorasining xulosasi.

Talabgor tomonidan taqdim qilingan talabnoma va hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish, akkreditatsiyalar laboratoriya to‘g‘risidagi

informasiyani to'plash va tahlil qilish uchun akkreditatsiya bo'yicha idora bitta yoki bir nechta ekspertlarni tayinlaydi.

Ekspertiza natijalari bo'yicha ekspert xulosasi tuziladi, u talabgorning hujjatlarning akkreditatsiya kriteriyalariga (mezonlariga) muvofiqligini baholashni o'z ichiga olishi lozim.

Natijalar ijobiy bo'lgan holda akkreditatsiya bo'yicha idora talabgorga – u, agar zarurat bo'lsa, ekspertlar tarkibi bo'yicha norozilik bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun laboratoriyani attestatlagan komissiyaning tarkibi va ekspertlarning familiyalarini ma'lum qiladi.

Ekspertiza natijalari salbiy bo'lgan taqdirda talabgorga boshlang'ich hujjatlarning akkreditatsiya kriteriyalariga mos kelmaganligi sababli akkreditatsiya to'xtatilganligi to'g'risida ma'lum qilinadi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi akkreditatsiyaga berilgan talabnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab, agar boshqa muddatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, 30 kalendar' kundan oshiq bo'lmagan muddatda akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko'radi va akkreditatsiyani o'tkazadi.

*Akkreditatsiyadan laboratoriyani attestatsiyadan o'tkazish  
(baholash).*

Akkreditatsiyadan sinov laboratoriyasi RST Uz 5.3 talablariga, qiyoslash laboratoriyasi - RST Uz 51-016 talablariga mos kelishi lozim.

Laboratoriyani attestatsiya (baholash) ekspert komissiyasi tomonidan barcha real mavjud bo'lgan sharoitlar, o'lchash vositalari va sinovlardan o'tkazish vositalarini o'z ichiga olgan holda bevosita laboratoriyaning o'zida o'tkaziladi.

Laboratoriyani attestatsiyadan o'tkazish uchun akkreditatsiya bo'yicha idora boshqa tashkilotlarning mos keluvchi sertifikatga ega bo'lgan qiyoslash, metrologik attestatsiyadan o'tkazish va sinovlardan o'tkazishning konkret turlarini baholaydigan ekspertlarini jalb qilishi mumkin.

Laboratoriyani attestatsiyadan o'tkazish jarayonida laboratoriyada foydalaniladigan o'lchovlar bilan hosil qilgan kattaliklar birliklarining qiymatlarini nazorat o'lchashlari o'tkazilishi, shuningdek xodimlarning o'lchash vositalarini qiyoslash, sinovlardan o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalari tekshirilishi mumkin.

Ekspert komissiyasi akkreditatsiya bo'yicha idoraga attestatsiya bo'yicha hisobotni taqdim qiladi, u akkreditatsiyadan laboratoriyaning akkreditatsiya talablarini bajarishga qodir ekanligini tasdiqlaydigan yoki tasdiqlamaydigan butun zaruriy informasiyani, shuningdek laboratoriyani

akkreditatslash yoki akkreditatslashni rad qilish to'g'risidagi takliflarni o'z ichiga oladi.

Attestatslash to'g'risidagi hisobot har bir tekshirilgan laboratoriya bo'yicha taqdim qilinadi.

Agar hisobot ijobiy bo'lsa, u holda talabgorga tasdiqlangan akkreditatslash sohasi ko'rsatilgan akkreditatslash attestati yoki sababini ko'rsatish bilan rad qilish to'g'risidagi yozma xabarnoma beriladi.

Akkreditatslash attestati 5 yildan oshiq bo'lmagan muddatga beriladi.

Tasdiqlangan akkreditatslash attestati O'zbekiston Respublikasining akkreditatslangan laboratoriyalar Reyestrda ro'yxatga olinadi.

Akkreditatslashning amal qilish davrida laboratoriyalarni faoliyatning qo'shimcha sohasiga akkreditatslash (akkreditatslash sohasini kengaytirish) talabnoma asosida to'liq hajmda o'tkaziladi.

Akkreditatslash natijalari bo'yicha akkreditatslash attestatiga ilova ko'rinishida o'zgarishlar yoki qo'shimchalar beriladi, unda akkreditatslangan laboratoriyaga qo'shimcha faoliyat olib borishga ruxsat berilganligi ko'rsatiladi.

Sinovlardan o'tkazish va qiyoslash laboratoriyasining akkreditatslash attestatining amal qilish muddati tugashiga ikki oy muhlat qolganda akkreditatslash statusini (maqomini) uzaytirish yoki tasdiqlashni xohlaydigan yuridik shaxslar Texnik jihatdan tartibga solish agentligida belgilangan formadagi talabnomani yo'llashlari lozim.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligida taqdim qilingan materiallar, o'lchash vositalarini qiyoslash va sinovlardan o'tkazish sifatini davlat metrologik tekshiruv va nazoratining natijalari asosida konkret talabgorga nisbatan akkreditatslash hajmi va protsedurasini belgilaydi.

*Akkreditatslangan laboratoriyalar ustidan nazorat o'rnatish*

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki u tomonidan vakil qilingan idora tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan akkreditatslangan laboratoriyaning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi, quyidagilar uning asosi bo'lib hisoblanadi:

- akkreditatslangan laboratoriyalar ustidan nazorat olib borishning tasdiqlangan rejasi;

- buyurtmachilar yoki boshqa tashkilotlar tomonidan asoslangan da'volar;

- o'lchash vositalarini inspeksion qiyoslash natijalari;

- laboratoriyaning shtatidagi, texnik jihozlanishidagi o'zgarishlar.

Tekshirishlar tekshirish tayinlanishiga sabab bo‘lib xizmat qiladigan asoslarga bog‘liq ravishda akkreditatlangan laboratoriya faoliyatining barcha turlari bo‘yicha yoki alohida yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Tekshirishlarning qoniqarsiz natijalari akkreditatlashni to‘xtatish, bekor qilish yoki uning faoliyat sohasini chegaralash uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Akkreditatlaydigan idora davriy ravishda, ko‘pi bilan bir yilda bir marta, laboratoriya faoliyatini inspeksion tekshirishdan o‘tkazadi.

### **Nazorat savollari**

1. Laboratoriyani akkreditatlash nima?
2. Akkreditatlashda laboratoriyalarga nisbatan qanday talablar qo‘yiladi?
3. Akkreditasiyalash tartibi to‘g‘risida gapirib bering.

## **15 – AMALIY MASHG‘ULOT**

### **O‘lchash vositalarini davlat metrologik tekshiruvini asosiy holatlari va vazifalari**

**Ishning maqsadi:** *O‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish tartib tamoyilini, davlat ro‘yxatiga olish tartiblarini va o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishi qanday hollarda to‘xtatib turilishi mumkinligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalarni o‘rganish.*

### **O‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish umumiy qoidalar**

1. Ushbu Qoidalar o‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish, o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash va tasdiqlangan o‘lchash vositalari turini O‘zbekiston Respublikasining o‘lchash vositalari davlat reyestriga kiritish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Qoidalar talablari davlat metrologik tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan sohada o‘lchash vositalarini qo‘llaydigan barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Quyidagi sohalarda qo‘llaniladigan o‘lchash vositalari keyinchalik ularning turi tasdiqlagan holda davlat sinovlaridan o‘tkazilishi kerak:

- sog‘liqni saqlash, veterinariya, atrof muhitni muhofaza qilish;

- moddiy boyliklarni va yoqilg‘i-energetika resurslarini hisobga olish;
- soliq, bojxona, savdo-tijorat, pochta va telekommunikasiya;
- zaharli, tez alanganuvchi, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo‘q qilish;
- umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish, realizasiya qilish va xizmatlar ko‘rsatish;
- aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, yong‘in xavfsizligini, suv obyektlarida insonlarning xavfsizligini ta‘minlash;
- sanoat xavfsizligini ta‘minlash;
- davlat mudofaasini ta‘minlash;
- mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta‘minlash;
- sertifikatlashtiriladigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;
- geodezik, kartografik va gidrometeorologik ishlarni bajarish;
- o‘lchash vositalarini davlat sinovidan, qiyoslashdan, kalibrlashdan, ta‘mirlash va metrologik attestasiyadan o‘tkazish;
- foydali qazilmalarni qazib olish;
- rasmiy sport musobaqalarini o‘tkazish;
- mahsulot va xizmatlar muvofiqligini baholash bo‘yicha ishlarni bajarish.

3. Ushbu Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanadi:

**ariza beruvchi** — davlat sinovlarini o‘tkazishda manfaatdor bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**ijrochi** — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbarligidagi akkreditasiyadan o‘tgan davlat metrologiya xizmati organi;

**o‘lchash vositasining turi** — bitta prinsipning o‘zida ishlashga asoslangan, bir xil konstruksiyaga ega bo‘lgan hamda bitta texnik hujjatning o‘zi bo‘yicha tayyorlangan, bitta maqsad uchun belgilangan o‘lchash vositalarining majmuiga beriladigan umumlashtirilgan ta‘rif;

**o‘lchash vositalarining namunasi** — ma‘lum cheklashlar bilan barcha jihatdan shu turga muvofiq bo‘lgan o‘lchash vositasining aniq nusxasi;

**o‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish** — ushbu turdagi o‘lchash vositalarining bir yoki bir nechta namunalarida o‘tkaziladigan muvofiqlikni baholash va keyinchalik o‘lchash vositalarining turini tasdiqlagan holda muvofiqlikni baholash to‘g‘risida hisobot berish tartib-taomili;

**o‘lchash vositalarini sinash dasturi** — o‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish ishlarining hajmini, turlarini va ketma-ketligini belgilovchi hujjat.

4. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doirada O‘zbekiston Respublikasining o‘lchash vositalari davlat reyestriga (keyingi o‘rinlarda reyestr deb ataladi) kiritilgan tasdiqlangan turdagi o‘lchash vositalarini qo‘llashga ruxsat beriladi.

5. Ishlab chiqariladigan va (yoki) seriyalab ishlab chiqarilishi mo‘ljallangan o‘lchash vositalari va O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘p holda ishlab chiqariladigan va (yoki) olib kiriladigan o‘lchash vositalari va zarur bo‘lganda, yagona nusxadagi o‘lchash vositalariga nisbatan (ariza beruvchining xohishiga ko‘ra) keyinchalik ularning turi tasdiqlangan va tasdiqlangan o‘lchash vositalari turi reyestriga kiritilgan holda o‘lchash vositalarining davlat sinovlari o‘tkaziladi.

6. O‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish ishlari uchun haq shartnomaga muvofiq ariza beruvchi tomonidan to‘lanadi.

7. O‘lchash vositalarining davlat sinovlari ushbu Qoidalarga [1-ilovaga](#) muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

8. O‘lchash vositalari davlat sinovlarining har bir keyingi bosqichi avvalgi bosqich natijalari ijobiy bo‘lganda bajariladi.

#### **O‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish**

9. Ariza beruvchi ushbu qoidalarga muvofiq shakl bo‘yicha o‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish uchun ijrochiga ariza yuboradi.

10. O‘lchash vositalarini davlat sinovlaridan o‘tkazish uchun berilgan arizada quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

ariza beruvchining nomi, manzili va rekvizitlari;

o‘lchash vositalarini ishlab chiqaruvchining nomi va manzili;

o‘lchash vositalarining nomi va ularning vazifasi;

o‘lchash vositalarining metrologik va texnik tavsiflari;

o‘lchash vositasining turini tasdiqlash bo‘yicha talablar ko‘rsatilgan hujjat belgilanishi va nomi.

11. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

tasdiqlanadigan turdagi o‘lchash vositalari (kamida uch nusxada);

o'lchash vositalarining ekspluatatsiya va texnik hujjatlari;

O'zbekiston Respublikasida seriyalab ishlab chiqarilishi mo'ljallangan o'lchash vositalariga talablar belgilangan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat yoki normativ hujjat loyihasi.

Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar davlat tilida yoki rus tilida bayon etilishi kerak. Agar hujjatlar boshqa tillarda bayon etilgan bo'lsa, u holda ularga asl nusxasiga mos tarjimasini ilova qilinadi, uning ishonchliligi uchun ariza beruvchi javob beradi.

Ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar bevosita, elektron shaklda yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilishi mumkin.

12. Ijrochi bir ish kuni mobaynida arizani ko'rib chiqadi va o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazishga ariza beruvchi bilan shartnoma tuzadi, davlat sinovlaridan o'tkazish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa — ariza beruvchiga davlat sinovlarini o'tkazishni rad etish sabablarini ko'rsatgan holda xat yuboradi.

O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish uchun shartnomalar elektron shaklda tuzilishi ham mumkin.

13. Ariza beruvchidan ushbu qoidalarining nazarda tutilmagan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ariza beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha ravishda boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi mumkin.

14. Ijrochi besh ish kunidan oshmaydigan muddatda taqdim etilgan hujjatlarni arizaga asosan ijrochi va ariza beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida metrologik ekspertizadan (keyingi o'rinlarda ekspertiza deb ataladi) o'tkazadi hamda ekspertiza natijalariga asosan ekspert xulosasini rasmiylashtiradi.

15. Taqdim etilgan hujjatlarning ekspertizasi metrologik talablar, o'lchashlar birligi bilan bog'liq qoidalar va normalar qo'llanishining to'g'riligi va to'liqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Ekspertiza o'tkazish vaqtida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddati, ijrochi tomonidan ariza beruvchiga ekspert xulosasi taqdim etilgandan so'ng o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ariza beruvchi tomonidan nomuvofiqliklar bartaraf etilgandan keyin, hujjatlarni qayta ekspertiza qilish zarur hujjatlar olingan kundan boshlab uch ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi. Hujjatlarni qayta ekspertiza qilish uchun to'lov undirilmaydi. Nomuvofiqliklarni



bartaraf etish bo'yicha belgilangan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar yangidan topshirilgan hisoblanadi.

Ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda ijrochi besh ish kunidan oshmaydigan muddatda o'lchash vositalarini sinash dasturini va qiyoslash uslubiyotini ishlab chiqadi va uni ariza beruvchi bilan kelishadi, o'lchash vositalarining turini sinovdan o'tkazish joyini va ariza beruvchi bilan kelishgan holda sinovlar o'tkazish jadvalini belgilaydi.

(Давлат метрологик хизмати органларининг номи, раҳбарининг лавозими)		
(Ф.И.О.)		
<b>Ўлчаш воситаларини давлат синовларидан ўтказиш учун АРИЗА</b>		
<b>Ариза берувчи</b> _____ (ариза берувчининг номи, почта манзили, телефон, факс, E-mail) ишлаб чиқаришга қўйиш, импорт бўйича олиб кириш мақсадида (кераклисининг тагига чизилсин)		
_____ (Ўлчаш воситаларининг номи ва уларнинг вазифаси, мақсадли ва қўлланиши мумкин бўлган соҳаси) _____ <b>Ўлчаш воситаларини</b> кейинчалик турларини тасдиқлаган ҳолда давлат синовларидан ўтказишнинг тизни сўрайди.		
<b>Давлат синовлари</b> _____ (Ўлчаш воситаларининг тури унинг талабалрига мувофиқлиги тасдиқланадиган _____ <b>мувофиқлигига ўтказилсин.</b> _____ хужжатнинг белгиланиши ва номи)		
<b>Ўлчаш воситаларини тайёрловчи</b> _____ (номи, почта манзили, телефон, факс, E-mail)		
Тайёрловчи томонидан берилган ўлчаш воситаларининг номи, тури ва белгиланиши _____		
Ўлчаш воситаларининг турини белгиловчи метрологик тавсифлари _____		
Турини тасдиқлаш тўғрисидаги ёки турини тасдиқлашни рад этиш тўғрисидаги аввалги хужжатларга ҳавола _____		
<b>Ариза берувчи</b> _____ (ариза берувчининг номи, банк реквизитлари)		
Ўлчаш воситаларини кейинчалик турларини тасдиқлаган ҳолда давлат синовларидан ўтказиш натижалари қандай бўлишидан қатъи назар, шу синовлар билан боғлиқ барча харажатлар учун ҳақ тўлаш мажбуриятини олади. Ариза билан бирга ўлчаш воситаларининг _____ та намуналари (нусхалари) ва қуйидаги хужжатлар тақдим этилади:		
<b>Ариза берувчи</b>		
_____ (ариза берувчининг номи, раҳбарининг лавозими)	_____ (имзо)	_____ (Ф.И.О.)
		_____ (сана)

16. O'lchash vositalarini sinash dasturi va qiyoslash uslubi, o'lchash vositalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablar inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.

17. Seriyali ishlab chiqarish, shu jumladan, import bo'yicha olib kirish uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarining davlat sinovlari ishlab chiqaruvchi zavodning ishlab chiqarish joyida o'tkaziladi. O'lchash vositalarini ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish joyida davlat sinovidan o'tkazish hajmi va davomiyligi ariza beruvchi bilan kelishgan holda o'lchash vositalarini sinash dasturiga muvofiq belgilanadi va tuziladigan shartnomada qayd etiladi.

18. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish davomiyligi yigirma besh ish kunidan oshmasligi kerak, sinovlar o'tkazish vaqtining normasi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq ko'rsatilgan muddatdan oshadigan o'lchash vositalari bundan mustasno.

19. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish jarayonida o'lchash vositalarining namunalari (nusxalari)ni sinash dasturiga muvofiq eksperimental tadqiq qilinadi va ularning natijalariga ishlov beriladi va tasdiqlanayotgan turdagi o'lchash vositasining qiyoslash uslubi eksperimental tarzda sinab ko'riladi.

20. To'plar yoki yagona nusxada import bo'yicha olib kiriladigan o'lchash vositalarining iqlim va mexanik ko'rsatkichlari bo'yicha Laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC) tizimida akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan berilgan amaldagi sinash bayonnomalari taqdim etilgan holda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazilmaydi.

Bunday holda sinov natijalari O'zbekiston Respublikasi hududiga haqiqatda olib kiriladigan o'lchash vositalarining butun to'plamiga nisbatan tatbiq etiladi.

21. O'lchash vositasini sinash dasturi bandlari bo'yicha o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish natijalari sinash (o'lchash, qiyoslash va kalibrlash) bayonnomasi shaklida rasmiylashtiriladi.

22. O'lchash vositalari davlat sinovlarining natijalari bo'yicha bayonnomasi hamda ushbu qoidalarga muvofiq shakl bo'yicha o'lchash vositalari turini tasdiqlash maqsadida sinash dalolatnomasi tuziladi. Bayonnomasi dalolatnomaga majburiy ilova hisoblanadi.

23. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish natijalari salbiy bo'lganda ijrochi uch ish kuni mobaynida nomuvofiqlik sabablarini

ko'rsatgan holda yozma ravishda ariza beruvchiga bu haqda xabar beradi. Nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddati kamchiliklarning xususiyatiga bog'liq holda belgilanadi, biroq bu muddat ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab uch oydan oshmasligi kerak.

24. Ariza beruvchi dalolatnomada bayon etilgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

25. Dalolatnomada ko'rsatilgan nomuvofiqliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, ijrochi uch ish kuni mobaynida o'lchash vositalarini sinovdan o'tkazish uchun arizani bekor qiladi.

26. Ariza beruvchi tomonidan nomuvofiqliklar bartaraf etilishi bo'yicha tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so'ng ijrochi uch ish kundan oshmaydigan muddatda taqdim etilgan hujjatlarni tekshiradi va zarur bo'lganda o'lchash vositasini takroran davlat sinovlaridan o'tkazadi.

27. O'lchash vositalarini takroran sinovdan o'tkazish natijalari salbiy bo'lganda ijrochi bir ish kuni mobaynida ariza beruvchiga o'lchash vositasining turini tasdiqlashda aniqlangan nomuvofiqliklarni ko'rsatgan holda keyinchalik o'lchash vositalarini sinovdan o'tkazishni rad etish to'g'risida xulosa beradi.

28. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish natijalari ijobiy bo'lganda ijrochi ikki ish kuni mobaynida o'lchash vositalarini sinovdan o'tkazish natijalariga ega bo'lgan hujjatlarni O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuboradi.

29. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bir ish kuni mobaynida o'lchash vositalarining turini tasdiqlaydi va reyestrda ro'yxatga oladi.

30. Ijrochi o'lchash vositalarining turi tasdiqlangandan so'ng ikki ish kundan oshmaydigan muddatda ushbu qoidalarga muvofiq shakl bo'yicha reyestr uchun o'lchash vositalari turning ta'rifini va muvofiq shakl bo'yicha o'lchash vositalari turini tasdiqlash haqidagi sertifikatni rasmiylashtiradi.

O'lchash vositalarini turini tasdiqlash sertifikatlarining blankalari qat'iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi.

O'lchash vositalarini turini tasdiqlash sertifikatlarining blankalari ijrochiga O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan beriladi.

O'lchash vositalarini turini tasdiqlash sertifikatlarining blankalari O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi buyurtmasi bo'yicha shartnoma asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi

“Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan tayyorlanadi.

Ijrochi o‘lchash vositalarini turini tasdiqlash sertifikatlarining blankalari hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun javob beradi.

31. O‘lchash vositalarining turini tasdiqlash sertifikatining amal qilish muddati besh yilni tashkil etadi.

32. Reyestrga kiritilgan va turi tasdiqlangan o‘lchash vositalari ro‘yxati O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy saytida ochiq e‘lon qilinadi, turi tasdiqlangan seriyalab ishlab chiqariladigan o‘lchash vositalari uchun qo‘shimcha ravishda o‘lchash vositasining turini tasdiqlash sertifikati va turning ta’rifi joylashtiriladi.

33. Ushbu turdagi o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash sertifikati amal qilish muddati tamom bo‘lgandan so‘ng o‘lchash vositasining turini tasdiqlash sertifikati amal qilish davri mobaynida ishlab chiqarilgan o‘lchash vositalari qiyoslashdan o‘tkaziladi. O‘lchash vositasining turini tasdiqlash sertifikati amal qilish davrigacha yoki undan keyin ishlab chiqarilgan o‘lchash vositalari reyestrga kiritilganidan so‘ng qiyoslashdan o‘tkaziladi.

34. Import bo‘yicha to‘p qilib olib kiriladigan o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash sertifikati ushbu turdagi o‘lchash vositalari to‘pining identifikasiya belgilari ko‘rsatilgan aniq to‘piga beriladi.

Oldin reyestrga kiritilgan o‘lchash vositasining yangi to‘pi olib kirilganda, o‘lchash vositalarining ushbu to‘piga o‘lchash vositalarining oldin reyestrga kiritilish raqami beriladi.

35. To‘p qilib import bo‘yicha olib kirilayotgan o‘lchash vositalarining davlat sinovlari o‘lchash vositalari namunaviy dasturlari yoki oldin reyestrga kiritilgan shu turdagi o‘lchash vositalarining sinash dasturlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

O‘lchash vositalari sinovlari namunaviy dasturlari ro‘yxati O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy saytida ochiq e‘lon qilinadi.

36. O‘lchash vositalarining turi tasdiqlanganidan so‘ng ijrochi bir ish kuni mobaynida o‘lchash vositalarini qiyoslash uslubiyotini, shuningdek, texnik talablarni tartibga soluvchi hujjat loyihasini (ilgari tasdiqlangan hujjat bo‘lmagan taqdirda) tasdiqlaydi.

37. Ijrochi yangi turi tasdiqlangan o‘lchash vositalarining ishlab chiqaruvchisi joylashgan joyda ushbu turdagi o‘lchash vositalarini ishlab chiqarishning metrologik ta’minoti holatini tahlil qiladi.

Ishlab chiqaruvchida reyestrda kiritilgan o'lchash vositalari, Laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC) yoki Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forum (IAF) tizimidagi akkreditatsiyadan o'tkazilgan yoki sertifikatlashtirish organi tomonidan tasdiqlangan (sifat) menejmenti tizimi mavjud bo'lgan taqdirda, birlamchi metrologik tekshiruv natijalari O'zbekiston Respublikasi hududida e'tirof etiladi.

38. O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish ariza beruvchining arizasiga binoan ushbu qoidalarining 39 — 37-bandlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi, 14-15-bandlarida nazarda tutilgan ishlar bundan mustasno.

O'lchash vositalari davlat sinovlarining natijalaridan qat'i nazar, ijrochi davlat sinovlari tugaganidan so'ng uch ish kuni mobaynida o'lchash vositalarining namunalari (nusxalari)ni ariza beruvchiga qaytaradi.

39. O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ijrochiga uning amal qilish muddati tugashidan kamida olti oy oldin topshirilishi kerak.

40. O'lchash vositalari turini tasdiqlash tartib-taomilidan o'tgan o'lchash vositalari qiyoslashdan o'tkazilishi lozim.

### **O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, bekor qilish va dublikatini berish**

41. O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

o'lchash vositasining sifati yomonlashganligi bo'yicha o'lchash vositalari foydalanuvchilarining asosli shikoyatlari (texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda o'lchash vositalariga belgilangan talablarga nomuvofiqlik) mavjud bo'lganda;

o'lchash vositasining davriy metrologik tekshiruv va uni nazoratdan o'tkazish jarayonida o'lchash vositasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda o'lchash vositalariga belgilangan talablar bo'yicha nomuvofiqliklar soni ko'payishi to'g'risida rasmiy ma'lumotlar (akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar) mavjud bo'lganda;

ishlab chiqaruvchi tomonidan o'lchash vositasining konstruksiyasiga va ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi to'g'risida ijrochiga xabar berilmaganligi aniqlanganda.

42. Ijrochi ushbu Qoidalarning 41-bandda ko'rsatilgan o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlar aniqlanganda o'n ish kuni mobaynida tegishli xulosani rasmiylashtiradi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga taqdim etadi.

Taqdim etilgan hulosasi asosida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi uch ish kuni mobaynida o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qiladi. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ijrochi tomonidan uch ish kuni mobaynida u ariza beruvchiga yetkaziladi.

43. O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etish muddati kamchiliklarning xususiyatiga bog'liq holda belgilanadi, biroq bu muddat O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab olti oydan oshmasligi kerak.

44. Ariza beruvchi tomonidan o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etganida, yozma shakldagi ma'lumotni ijrochiga taqdim etadi.

45. Ijrochi o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risida yozma shakldagi ma'lumotni olgan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi xulosani taqdim etadi.

46. Ijrochi tomonidan taqdim etilgan xulosasi asosida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi uch ish kuni mobaynida sertifikatning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi va bu to'g'risida ijrochi tomonidan uch ish kuni mobaynida ariza beruvchiga xabar beradi.

47. O'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishi quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

o'lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish bo'yicha qarorda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan belgilangan muddatlarda o'lchash vositalari

turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini to‘xtatib turish holatlari ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etmaganda;

ishlab chiqaruvchi o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining amal qilishini bekor qilishi to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

turi tasdiqlangan o‘lchash vositalarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs tugatilganda — tugatilgan paytdan e‘tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e‘tiboran.

48. O‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikati yoki o‘lchash vositalari turining ta‘rifi yo‘qotilganda yoki unga zarar yetkazilganda ijrochi tomonidan o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikatining yoki o‘lchash vositalari turi ta‘rifining dublikati ariza beruvchining arizasiga asosan o‘n ish kuni mobaynida rasmiylashtirib beriladi, bunda dublikatning yuqori qismi o‘ng tomoniga: “DUBLIKAT 20\_\_ yil “\_\_”  
\_\_\_\_\_ da BERILGAN” so‘zlari yoziladi.

49. O‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikati yoki o‘lchash vositalari turning ta‘rifidagi imloviy, grammatik xatolarni tuzatish o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikati yoki o‘lchash vositalari turining ta‘rifini bekor qilish hamda yangi o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikati yoki o‘lchash vositalari turning ta‘rifi oldin berilgan o‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikati yoki o‘lchash vositalari turining ta‘rifidagi sana ko‘rsatilgan holda rasmiylashtirilishi yo‘li bilan amalga oshiriladi.

50. O‘lchash vositalari turini tasdiqlash sertifikat amal qilishini to‘xtatib turish, tiklash va bekor qilish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy saytida ochiq e‘lon qilinadi.

51. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan o‘lchash vositalarining sinov natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e‘tirof etish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-oktyabrdagi 292-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e‘tirof etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi.

52. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

53. Ushbu Qoidalar talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

### O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish tartibi sxemasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	O'lchash vositalarining turini tasdiqlash maqsadida davlat sinovidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va arizani tayyorlaydi hamda ijrochiga taqdim etadi.	Zarur bo'lgan hollarda
2-bosqich	Ijrochi	Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib: o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazishga ariza beruvchi bilan shartnoma tuzadi; davlat sinovlaridan o'tkazish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ariza beruvchiga arizani rad etish sabablarini ko'rsatgan holda xat yuboradi.	Bir ish kuni mobaynida
3-bosqich	Ijrochi	Taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazadi hamda ekspertiza yakunlari bo'yicha ekspert xulosasini rasmiylashtiradi.	Besh ish kuni mobaynida
	Ariza beruvchi	Ekspertiza natijalari salbiy bo'lganda — nomuvofiqliklarni bartaraf etadi va hujjatlarni qayta ekspertiza qilish uchun taqdim etadi.	O'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
	Ijrochi	Hujjatlarni takroriy ekspertizadan o'tkazadi.	Uch ish kuni mobaynida
	Ijrochi	Ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda — o'lchash vositalarini sinash dasturi va qiyoslash uslubiyotini ishlab chiqadi.	Besh ish kuni mobaynida
4-bosqich	Ijrochi	1. O'lchash vositalarini keyinchalik turlarini tasdiqlagan holda davlat sinovlaridan	O'n ish kuni mobaynida



		o'tkazadi. 2. Sinovlar natijalari bo'yicha dalolatnoma va bayonnomani rasmiylashtiradi.	
5-bosqich	Ijrochi	Sinovlar natijalari salbiy bo'lganda, nomuvofiqliklar sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda ariza beruvchiga bu haqda xabar beradi.	Uch ish kuni mobaynida
6-bosqich	Ariza beruvchi	Nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi.	Ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab uch oydan ko'p bo'lmagan muddatda
7-bosqich	Ijrochi	Nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni tekshiradi, lozim bo'lganda o'lchash vositalari takroriy davlat sinovlaridan o'tkaziladi.	Uch ish kuni mobaynida
8-bosqich	Ijrochi	O'lchash vositalarini takroriy sinovdan o'tkazish natijalari salbiy bo'lganda, ariza beruvchiga nomuvofiqliklarni ko'rsatgan holda keyinchalik o'lchash vositalarini sinovdan o'tkazishni rad etish to'g'risida xulosa beradi.	Bir ish kuni mobaynida
9-bosqich	Ijrochi	O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish natijalari ijobiy bo'lganda yoki o'lchash vositalarining takroriy davlat sinovlaridan o'tkazishni tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lganda, ularni O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuboradi.	Ikki ish kuni mobaynida
10-bosqich	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	O'lchash vositalarining turini tasdiqlaydi va reyestrda ro'yxatga oladi.	Bir ish kuni mobaynida
11-bosqich	Ijrochi	O'lchash vositalarining turi tasdiqlangandan so'ng vositalari turini tasdiqlaydigan sertifikatni va reyestr uchun o'lchash vositasi turining ta'rifini rasmiylashtiradi va sertifikat beradi.	Ikki ish kuni mobaynida

## Nazorat savollari

1. O'lchash vositalari turini tasdiqlash qanday tartibda amalga oshiriladi?

2. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish tartiblari?
3. O'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish umumiy qoidalar?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida" gi Qonuni (07.04.2020 yil)
2. O'z DSt 8.010:2002 «O'DT. Metrologiya. Atamalar va ta'riflar»
3. O'z DSt 8.002:2009 «Metrologiya tekshiruvi va nazorati. Asosiy holatlar»
4. O'z DSt 8.011:2004 «O'lchash vositalarini metrologik attestatlash. Tashkil qilish va o'tkazish tartibi»
5. O'z DSt ISO/IEC 17025:2017 «Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga umumiy talablar»
6. O'z DSt 8.003:2005 «O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning birligini ta'minlash davlat tizimi. O'lchash vositalarini qiyoslash. Asosiy holatlar»
7. O'z DSt ISO 9000:2002 «Sifat menejmenti tizimi. Asosiy holatlar va lug'at»
8. O'z DSt 8.007:2002 «O'DT. O'lchash vositasinig qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash. Asosiy holatlar»
9. O'z DSt 8.006:1999 «O'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish, metrologik attestatlashdan o'tkazish va qiyoslash huquqini akkreditatlash»
10. GOST 8.010-99 «O'DT. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari. Asosiy holatlar»
11. O'z DSt 8.004:2004 «Moddalar va materiallarning tarkibi va xususiyatlarining standart namunalari. Asosiy holatlar»
12. O'z DSt 8.012:2005 O'zR O'DT. Kattaliklarning birliklari;
13. O'z DSt 8.016:2002 «O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari. Asosiy holatlar»
14. O'z DSt 8.009:2004 «O'DT. O'lchash vositalarining turini

tasdiqlash. Tashkil qilish va o'tkazish tartibi»

15. O'z DSt 1.19:2000 «Muvofiqlikni tasdiqlash belgilari. Shakli, chizilishi, asosiy o'lchamlari».

16. O'z DSt 16.5:2001 «O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiya tizimi. Yuridik va jismoniy shaxslarning o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatsiyadan o'tkazish va hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish huquqini akkreditatsiya. Tashkil qilish va o'tkazish tartibi»

17. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi)

18. [www.standart.uz](http://www.standart.uz) (Texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy sayti)

## Mundarija

1. Metrologiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonunini tahlil qilish.....	3
2. O'zbekiston Respublikasida standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati to'g'risida.....	8
3. Metrologiya sohasidagi atamalarni qo'llashning me'yoriy asoslari.	14
4. Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tarkibiy tuzilishi. Milliy metrologiya institutining faoliyatini o'rganish.....	19
5. O'lchashlar birliligini ta'minlash bo'yicha konsepsiyani o'rganish.	28
6. Xalqaro birliklar tizimini (SI) qo'llashning qonunchilik va me'yoriy asoslari.....	35
7. Qonunlashtiruvchi metrologiya sohasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar va me'yoriy hujjatlar.....	40
8. O'lchash vositalarini qonunchilik talablariga muvofiqligini tasdiqlash.....	46
9. Metrologik tekshiruv va nazorat qilishning qonunchilik asoslari.....	59
10. O'lchashlarni bajarish uslubiyotini ishlab chiqish va attestatsiyadan o'tkazish tartibi.....	63

11. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan to'g'risida.....	siyosat	qo'llash	72
12. O'lchash vositalarini kalibrlashning asoslari...81		me'yoriy-huquqiy	
13. O'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining tashkiliy tuzilishi...85			
14. O'lchash vositalarini sinovlardan o'tkazish, metrologik attestatlash va akkreditatlash.....92	qiyoslash	huquqiga	
15. O'lchash vositalarini davlat metrologik tekshiruvining asosiy holatlari va vazifalari.....99			
Foydalanilgan adabiyotlar.....111			

Muharrir – Alimova S.A.  
Musahih – Adilkhodjayeva Sh.M.